

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

«BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT» KAFEDRASI

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”

“BH va A” kafedra mudiri
____ dots. O.Xushmuradov
“ ____ ” ____ 2013 yil

“TASDIQLAYMAN”

“Iqtisodiyot” fakulteti dekani
____ i.f.d. A.Xurramov
“ ____ ” ____ 2013 yil

**“Davlat byudjetining daromadlari tizimi va ularni shakllantirish asoslari”
(Yakkabog’ tumani moliya bo’limi misolida) mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY
ISHI

Bajardi:

“Moliya” ta’lim yo‘nalishi
bitiruvchi IV-kurs G’-41 guruh
talabasi Chorshanbiyev Mirzohid

Ilmiy rahbar:

Yakkabog’ tumani ug’urta bo’limi
bosh hisobchisi D.Jalilov

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi
16-sonli 24 iyun 2013 yil

Qarshi-2013 yil

Kirish

Mavzuning dolzariligi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning bosh vazifasi bo'lib, makroiqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarishning izchil va mutanosib o'sish su'ratlarini ta'minlash, jalb etilayotgan investitsiyalarni ko'paytirish hisobidan tashkiliy o'zgarishlarni qat'iy davom ettirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilash hisoblanadi. Oldimizga qo'yilgan bosh vazifani amalga oshirishning ustuvor yumishlarining asosiylari soliq-byudjet siyosatini yanada erkinlashtirish, aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilab va uning faravonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlashdan va rivojlantirishni rag'batlantirishdan iborat.

Yuqoridagi tadbirlarni hayotga tadbqiq etish, pirovardida, samarali natijalarga erishish esa bevosita, mamlakat moliya tizimining markaziy bo'g'inida turgan davlat byudjeti bilan bevosita bog'liqdir. Davlat byudjetining optimal tuzilishi va uning ijro etilishi, nafaqat mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini taminlashga xizmat qiladi, balki xo'jalik subektlarining iqtisodiy yuksalishiga olib keladi. Keyingi yillarda mamlakatimizda islohatlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish chora-tadbirlarini izchil amalga oshirish natijasida iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlar, inflatsiyaning darajasini pasayishi va xalq farovonligining oshishi tendensiyasi mustahkamlanmoqda. Iqtisodiy o'sish natijasida davlat byudjeti 2006- yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,5 foiz va 2007-yilda 1,1 foiz profitsit bilan ijro etildi.

2008-yil yuzaga chiqqan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uning bartaraf etish yo'llari va choralariga diqqat etiborni qaratgan O'zbekiston Respublikasi Prizedenti Islom Karimov "Davlat byudjeti ortig'i bilan bajarildi, ko'zda tutilgan defitsit o'rniga yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,5 foiz miqdorida profitsitga erishildi. Puxta o'ylangan qat'iy pul-kredit siyosatini ischil olib borish tufayli intilatsiya ko'zda tutilgan prognoz chegarasida, ya'ni yillik 7,8 darajasida saqlab qolindi" - deb alohida ta'kidlab o'tdi. Ushbu omil esa, mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodit inqirozining ta'sirini kamaytirish va uning oqibatlarini bartaraf etish uchun kerakli shart-sharoitlar mavjudligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik o'zgarishlar, mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlarini kengayishi natijasida ularga ma'muriy hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash vazifasi yuklatildi. Mahalliy vakillik organlari amaldagi qonunchilikka asosan o'zlariga yuklatilgan funksiyalarni to'liq hamda belgilangan muddatlarda bajarishlari uchun ma'lum moliyaviy baza bilan ta'minlanadi. Ushbu bazaning asosi bo'lib mahalliy byudjetlar hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatni ijtimoiy rivojlantirishda mahalliy byudjetlarining ahamiyati yildan-yilga ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida 1994-yilda davlat byudjeti xarajatlarining mahalliy byudjetlardagi ulushi 41,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2006-yilda 53,8 foizni, 2007-yilda 56,9 foizni va 2008-yilda 55,5 foizni tashkil etdi. Lekin erishilgan yutuqlarga qaramasdan, hozirda respublikamizda qo'llanilayotgan

byudjet tizimini hozirgi holati qo'yilgan maqsadlarga erishishni to'liq ta'minlay olmayotganligi, hududlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muommalarni hal etish va iqtisodiy barqarorlik ta'minlash sharoitlarini yuzaga chiqarmoqda. Ushbu muommoga o'z diqqat-e'tiborini qaratgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quydagilarini tanqidiy ta'kidladi: "Hozirgi kunda Surxondaryo, Jizzax va Namangan kabi ba'zi viloyatlar va ko'plab qishloq tumanlari byudjetlarining dotatsiyada qolib ketayotgani, ya'ni respublika byudjeti hisobidan taminlanayotganligini birinchi navbatda mazkur hududlarda zamonaviy korxonalar, kichik biznes sohasi, savdo tarmoqlari, umuman infrotuzilmani rivojlantirishga e'tibor berilmayotgani bilan bog'liq deb aytishga barcha asoslarimiz bor". Ushbu omil esa mahalliy moliyaning tarkibiy qismi hisoblangan mahalliy byudjet bilan birga xo'jalik subektlarining moliyasini uyg'unlashgan holda o'rganishni va ularning daromadlarini oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqarishni taqozo etadi. Bu esa biz tanlagan mavzuning dolzarbligida dalolat beradi.

Muommoning o'rganilgalik darajasi O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar va mutaxassislardan A. Abduqodirov, M.I. Almardonov, I.I. Alimov, A.V. Vahobov, E.F. Gadov, X.N. Jamolov, A.S. Jo'rayev, T.S. Malikov va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida davlat byudjeti ning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning ahamiyati va vazifalari yuzasidan ilmiy fikr-mulohazalari aks ettirilgan.

Respublikamizda keying yillarda mahalliy byudjetning mohiyati, vazifalari, ularning daromadlarini shakllantirish va xarajatlarning sarflanishi muommolari iqtisodchi olimlar Jubaev S.D va Tajibaev K.A larning nomzodlik dissertatsiyasida muayyan darajada tadqiq etilgan. Milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida byudjet tizimida olib borilgan o'zgarishlar, jumladan davlat byudjetini bajarishga qaratilgan g'aznachilik institutini rivojlantirish va soliq tizimini boshqarishni isloh qilishda 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq Kodeksi asosida mahalliy moliyani yanada kengroq va chuqurroq o'rganish zaruriyatini oshiradi. Mahalliy byudjetlar mohiyatini viloyat misolida va korxonalar moliyasini shakllantirishning xususiyatlari hamda ularni takomillashtirish yo'nalishida hozirda nomzodlik dissertatsiyasi bajarilmagan. Mamlakatimizda hozirda mahalliy moliyada, jumladan mahalliy byudjetlarni shakllantirishda o'z yechimini kutayotgan muommalar mavjud. Bizning ilmiy izlanishimizda mahalliy moliyaning tarkibiy qismlari hisoblangan mahalliy byudjet, korxonalar moliyasi va davlat maqsadli byudjetdan tashqari jamg'armalarning shakllanishida mavjud muommalarni ijobiy hal etish yuzasidan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilinadi.

Bitiruv malakaviyi ishning maqsadi. Davlat byudjetining davomadlari tizimi va uni shakllantirish bilan bog'liq takliflar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun quydagi vazufalar belgilab olinadi.

-davlat byudjeti daromadlar va turlarini tadbiq etish;

- -mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishni tahlil etish va uning xususiyatlarini aniqlash;

- -milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mahalliy byudjetni shakllantirishning hozirgi zamon holati va undagi muammolarni aniqlash;

- -olib borilgan tadqiqot natijalari asosida byudjetni shakllantirishning takomillashtirish bo'yich ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Ilmiy ishning obekti. Mazkur ilmiy ishning obekti sifatida O'zbekiston respublikasi davlat byudjetini shakllantirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tanlab olindi.

Tadqiqotning predmeti sifatida mahalliy moliyani shakllantirish va byudjetlararo munosabatlarni amalga oshirishda Yakkabog' tuman moliyaviy faoliyati olindi.

Tadqiqot metodlari. Bajarilgan dissertatsiyada, taqqoslash , induksiya, deduksiya, korrelyatsiya, iqtisodiy-statistik usullar qo'llaniladi.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar quydagilardan iborat:

- Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish hozirgi zamon amaliyotining zamonaviy bozor iqtisodiyoti talablariga yetarli darajaga javob bera olmayotgani (hududlar moddiy manfaatdorligining mavjud emasligi, joylarda boqimandalik kayfiyatining mavjudligi) va uning nooqilona ekanligi aniqlandi;

- Mahalliy soliqlar rolini ko'tarish ularning mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllanishdagi salmog'ini oshirish maqsadga muvofiqligi asoslandi;

- Mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirish va ularning dotatsiyalaridan chiqarish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ilmiy izlanishning nazariy-uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish bo'yicha ilgari surgan nazariy qarashlari, ilmiy risolalari, byudjet tizimiga oid Prezident farmonlari va qarorlari, shu jumladan, mahalliy moliya mavzusi yuzasidan bevosita va bilvosita shug'ullanayotgan xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari mazkur dissertatsiya ishining nazariy asoslarini tashkil etadi.

Ilmiy ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Shundan iboratki, undagi fikr mulohazalar, xulosa va takliflardan mamlakatimizning byudjet-soliq, hududlarni rivojlantirishni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlari ishlab chiqarishda, ma'muriy-hududiy tuzilmalarni kompleks rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayonlarida foydalanish mumkin.

Bitiruv Malakaviy ish ma'lumotlaridan oliy o'quv yurtida bakalavriat iqtisodiy yo'nalishlarida "Moliya" , "Davlat byudjeti" va "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi" kurslarida ma'ruza matnlarini tayyorlash mumkin.

I bob Davlat byudjeti daromadlarining mohiyati, zarurligi, va tamoyillari

1.1 Davlat byudjeti daromadlarining mohiyati va vazifalari

Byudjet daromadlari davlatni markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi bo'lib, davlat funksiyalarini bajarish uchun zarurdir. Ular pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadi va turli darajadagi hokimiyat organlarining ixtiyoriga kelib tushadi.

Qayd etilganlarni inobatga olgan holda unga byudjet daromadlarining ma'no-mazmunini ifodalovchi quyidagi ta'riflarni berish mumkin: pul mablag'lari fondlarini shakllantirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy (moliyaviy) munosabatlarni o'zida ifoda etadigan, hokimiyat organlarining turli darajalari ixtiyoriga kelib tushadigan, davlatning funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat markazlashtirilgan moliyaviy resurslarining bir qismi byudjet daromadlari deyiladi.

Mamlakatlarning davlat tuzilishiga bog'liq ravishda byudjet daromadlari quyidagicha farqlanadi:

- 1) markaziy (davlat) byudjet(i) daromadlari;
- 2) unitar (yagona) davlatlardagi mahalliy byudjetlar daromadlarjy'

Federativ (ittifoqchilik) tuzilish(i)ga ega bo'lgan davlatlarda byudjet daromadlarining bu ikki ko'rinishi federatsiya a'zolari byudjetlarining daromadlari bilan to'ldiriladi. Byudjet daromadlari davlat daromadlariga nisbatan torroq darajadagi tushunchadir. Chunki davlat daromadlari hokimiyatning barcha darajadagi byudjetlarining moliyaviy mablag'lari bilan birgalikda yana o'zining tarkibiga davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalar va barcha davlat sektoriga tegishli bo'lgan boshqa resurslarni ham qamrab oladi.

Byudjet daromadlarining asosiy moddiy manbai milliy daromaddir. Agar davlatning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun milliy daromad yetarli bo'lmasa, davlat bunday ehtiyojni qondirishga milliy boylikni jalb etishi mumkin. Bu yerda milliy boylik deyilganda ma'lum bir davrda jamiyatning ixtiyorida bo'lgan, hozirgi va o'tgan avlodning mehnatlari evaziga yaratilgan moddiy ne'matlar hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan tabiiy resurslar majmui nazarda tutilayapti.

Milliy daromadni davlat ixtiyoriga o'tkazish turli metodlar yordamida amalga oshiriladi. Soliqlar, davlat krediti va pul emissiyasi davlat hokimiyati organlari tomonidan milliy daromadni qayta taqsimlash va byudjet daromadlarini shakllantirish uchun foydalanilayotgan metodlarning asosiylari bo'lib hisoblanadi. Bu metodlar o'rtasidagi nisbat mamlakatlar va davrlar bo'yicha turlicha bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa qarama-qarshiliklarning kuchlilik darajasi, davlatning moliyaviy siyosati va moliyaviy ahvoli bilan belgilanadi.

Milliy daromadni qayta taqsimlashning asosiy metodi soliqlar hisoblanadi. Ular yordamida byudjet daromadlarining asosiy salmog'i ta'minlanadi. Turli mamlakatlar markaziy byudjetlarining daromadlarida soliq tushumlari qariyb 90%ni tashkil etadi. Federatsiya a'zolari va mahalliy byudjetlar daromadlarida

solliqlarning salmog'i nisbatan pastroqdir. Bu byudjetlar biriktirilgan (tegishli byudjetlarning o'z daromadlari) va tartibga keltiruvchi (byudjet tizimining yuqori bo'g'inidan quyi bo'g'iniga beriladigan daromadlar) daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

O'zining moliyaviy ahamiyatiga ko'ra davlat kreditlari ham byudjet daromadlari hisoblanadi. Kelgusi yil uchun byudjet tuzilayotgan paytda byudjet defitsiti mavjud bo'lsa, davlat ana shu metoddan foydalanadi. Davlat mamlakatda moliyaviy ahvolning murakkablashishi va byudjet defitsiti hajmining oshishiga muvofiq ravishda davlat kreditiga murojaat qiladi. Bunday kreditlarni olishning ikki yo'li mavjud:

1) davlat nomidan qimmatli qog'ozlar chiqarish yo'li bilan jismoniy va yuridik shaxslardan davlat qarzlarini olish;

2) Markaziy bank va boshqa kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar.

Davlat kredit operatsiyalari hajmining oshishi davlat qarzining oshishiga olib keladi. O'z navbatida, davlat qarzlarini soliqlar bilan chambarchas bog'liq. Uni uzish va foizlarini to'lash, asosan, soliq to'lovlari yoki davlatning yangi kredit operatsiyalari hisobidan amalga oshiriladi.

Favqulodda holatlarda, soliq to'lovlari va davlat kreditlarini olish murakkab - lashganda davlat qog'oz pullar emissiyasiga murojaat qiladi. Bu byudjet daromadlarini to'ldirishning eng noqulay metodidir. Chunki bu metodning qo'llanilishi tegishli tartibda tovar bilan ta'minlanmagan pul massasining o'sishiga va inflyasion jarayonlarning kuchayishiga, pirovardida esa, og'ir ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Byudjet daromadlari mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlash umumiy jarayonining elementlaridan biri bo'lib, oraliq (tranzit) xarakterga ega. Ular yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan daromadlar va jamg'armalarning bir qismini-byudjetga o'tkazilishi natijasida vujudga keladi. Byudjet daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi. Bu moliyaviy (byudjet) kategoriyaning namoyon bo'lish shakli byudjetga borib tushuvchi turli soliqlar, to'lovlar, yig'imglar, bojlar va ajratmalardan iborat .

Miqdoriy jihatdan byudjetning daromadlari yaratilgan (ishlab chiqarilgan) yalpi ichki (milliy) mahsulotda (milliy daromadda) davlatning ulushini ko'rsatadi. Ularning absolyut hajmi va salmog'i mamlakatning yalpi ichki (milliy) mahsuloti (milliy daromadi)ning umumiy hajmi, u yoki bu davrda davlatning oldida turgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa va boshqa vazifalar bilan belgilanadi) Ana shularga muvofiq ravishda byudjetga mablag'larni to'plash yig'ish miqdori va ularni undirishning shakl va metodlari aniqlanadi.

Byudjet daromadlarini shakllantirish jarayonining quyidagi prinsiplarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir:

✓ sub'ektlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishiga sharoit yaratish. Buning ma'nosi shundaki, sub'ektlarga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismini byudjetga olinishi ularning mustaqil rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Bu chegaradan oshib ketish sub'ektlarning mustaqilligini yo'qotishiga, kasodga uchrashhollarining vujudga kelishiga, ichki rezervlarni qidirib topishga va

ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini ta'minlashga intilishning susayishiga, xufyona iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keladi;

✓ sub'ektlarning xatti-harakati va intilishiga bog'liq bo'lmagan holda vujudga kelgan daromadlarning to'liq yoki qisman byudjetga olinishi. Ma'lum bir xarajatlarni amalga oshirmasdan turib olingan barcha daromadlar sub'ektlarning ixtiyoriga qoldirilmasdan davlat ixtiyoriga o'tishi kerak. Bu prinsipning ta'siri ostiga sub'ektlar ma'muriyatining noto'g'ri, noqonuniy harakati (masalan, davlat standartlarini buzish va boshqalar) natijasida olingan daromadlar ham kiritilmog'i lozim;

✓ ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqa maqsadlar uchun korxonaning rejalashtirilgan ehtiyojidan ortgan summalarni byudjetga olish. Bu prinsip byudjet daromadlarini davlat korxonalarining mablag'lari hisobidan tashkil etishda qo'llanilishi mumkin. U davlat korxonalarining moliyaviy holatini tartibga soladi va bir vaqtning o'zida ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda davlatning manfaatlarini ta'minlaydi;

- byudjet mexanizmining rag'batlantiruvchi ta'sirini ta'minlash. Sub'ektlar ixtiyoridan mablag'larning byudjetga olinishi ularning samarali faoliyat ko'rsatishini rag'batlantirishi kerak. Bu yerda qo'yilgan vazifa faqatgina byudjet daromadlarini miqdoriy jihatdan ta'minlash emas, balki shu orqali korxonada faoliyat ko'rsatayotgan mehnat jamoalarining manfaatlariga, ular faoliyatining sifat ko'rsatkichlariga to'lovlarning ta'sirchanligini kuchaytirishdir;

- byudjet daromadlarini shakllantirishda ulushli ishtirok etish. Bu prinsip aholi mablag'lari hisobidan byudjet daromadlarini shakllantirishda qo'llanilib, uning natijasida aholi daromadlarining bir qismi ular olgan daromadlarining darajasiga bog'liq ravishda byudjetga o'tkaziladi.

Byudjet daromadlarining asosiy qismi soliqlar yordamida undirilishi tufayli bu jarayonda quyidagi prinsiplardan foydalaniladi:

- soliqlarning byudjetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi kerak;

- soliqlar ulami to'lovchilar o'rtasida teng (adolatli) taqsimlanmog'i lozim;

- soliqlarning ishlab chiqaruvchilar aylanma fondlari hajmiga ta'sir ko'rsatmasligi;

- soliqlarning sof daromadga nisbatan hisoblanishi;

- davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo'lishi lozim;

- soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak.

Byudjet daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, ulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli, ularni byudjetga undirish metodlari va hokazolarga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin.

Byudjet daromadlari o'z manbalariga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- solikli daromadlar;
- soliqsiz daromadlar;
- tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) tarzda o'tkaziladigan pul mablag'lar.

Byudjetning solikli daromadlari tarkibi mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq umumdavlat soliqlari va yig'implari, mahalliy soliqlar va yig'implar,

bojxona bojlari, boj yig'implari va boshqa boj to'lovlari, davlat boji, penya va jarimalardan iborat. Soliqsiz daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- davlat mulkidan foydalanishdan olingan daromadlar (soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);
- byudjet tashkilotlari tomonidan ko'rsatilgan to'lovli xizmatlardan kelgan daromadlar (soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);
- fuqarolik-huquqiy, ma'muriy va jinoiy choralarni qo'llash natijasida olingan mablag'lar, jumladan, jarimalar, musodaralar, kompensatsiyalar va davlat sub'ektlariga yetkazilgan zararlarni tiklash bo'yicha olingan mablag'lar va majburiy undirilgan boshqa mablag'lar;
- moliyaviy yordam ko'rinishidagi daromadlar (byudjet ssudalari va byudjet kreditlaridan tashqari);
- boshqa soliqsiz daromadlar.

Byudjet daromadlarining tarkibiga tushumlarning quyidagi ko'rinishlari hisobga olinishi mumkin:

- davlat mulkini vaqtinchalik foydalanishga berish natijasida ijara haqi yoki boshqa ko'rinishda olinadigan mablag'lar;
- kredit muassasalaridagi hisobvaraqlarda byudjet mablag'larining qoldig'i bo'yicha foizlar ko'rinishida olinadigan mablag'lar;
- davlatga tegishli mol-mulkni garovga yoki ishonchli boshqaruvga berishdan olinadigan mablag'lar;
- qaytarish va haq olish asosida boshqa byudjetlarga, xorijiy davlatlarga yoki boshqa yuridik shaxslarga berilgan byudjet mablag'laridan foydalanganlik uchun haq;
- davlatga qisman tegishli bo'lgan xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalining hissasiga yoki aksiyalar bo'yicha dividendlarga to'g'ri keladigan foyda ko'rinishidagi daromadlar;
- davlat unitar korxonalari foydasining bir qismi (soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq to'langan soliq va yig'implardan so'ng);
- davlatga tegishli bo'lgan mol-mulkdan foydalanish natijasida olinadigan qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa daromadlar.

Byudjetning daromadlar qismini to'ldirishning manbalaridan biri byudjet tizimida boshqa darajada turgan byudjetdan dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar yoki mablag'larni qaytarilmaslik va tiklamaslikning boshqa shakllarida olinadigan moliyaviy yordamdir. Bunday moliyaviy yordamlar mablag'larni oluvchi byudjetning daromadlarida o'z ifodasini topishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar hukumatlaridan qaytarilmaydigan yoki tiklanmaydigan shaklda o'tkazilayotgan mablag'lar ham byudjetning shunday daromadlari tarkibiga kiradi.

Amaliyotda davlat byudjetining daromadlari quyidagi tartibda klassifikatsiya lanadi:

1. To'g'ri (bevosita) soliqlar. Ularning tarkibiga yuridik shaxslarning foydasidan olinadigan soliq; savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun

yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar; yagona soliq to'lovidan (mikrofirmalar va kichik korxonalar bilan birgalikda) Davlat byudjetiga ajratmalar; jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan qat'iy soliq kiradi.

2. Egri (bilvosita) soliqlar. Bu soliqlarning tarkibi qo'shilgan qiymat solig'i; aksizlar; bojxona bojlari; jismoniy shaxslardan olinadigan yagona boj to'lovi; transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliqdan iborat.

3. Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i. Bu guruhga kiruvchi soliqlar va to'lovlar mol-mulk solig'i; yer solig'i; yer osti boyliklaridan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni o'z ichiga oladi.

4. Ustama foydadan olinadigan soliq.

5. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq.

6. Boshqa daromadlari

Shuningdek, yuridik nuqtai nazardan, byudjet daromadlari uch guruhga ajratilishi mumkin:

- davlat byudjeti daromadlari;
- respublika byudjeti daromadlari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari.

Davlat byudjeti daromadlariga O'zbekiston Respublikasi «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonunining 11-moddasiga muvofiq, quyidagilar kiritiladi:

- qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

O'zbekiston Respublikasining byudjeti tarkibiga quyidagidaromadlar kiradi (yuqoridagi qonunning 15-moddasi):

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi va normativlar asosidagi umumdavlat soliqlari, yig'implari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar;
- qonun hujjatlarida belgilangan normativlar bo'yicha davlat moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

- rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan
- byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to'lovlar;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari quyidagilar hisobidan shakllantirilishi mumkin («Byudjet tizimi to'g'risida» gi qonunning 18-moddasi):

- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga yo'naltiriladigan mahalliy soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan umumdavlat soliqlari, yig'imlari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar;
- qonun hujjatlarida belgilangan normativlar bo'yicha davlat moliyaviy va boshqa aktivlarini joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;
- qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq davlat mulki ob'ektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuqori byudjetlardan beriladigan byudjet dotatsiyalari, byudjet subvensiyalari va byudjet ssudalari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar,

O'zining ijtimoiy-iqtisodiy belgisiga ko'ra byudjet daromadlari ikki guruhga bo'linishi mumkin:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan olinadigan daromadlar;
- aholidan tushumlar.

Mulkchilik shakliga ko'ra byudjet daromadlari quyidagi ko'rinishlarni olishi mumkin:

- nodavlat sektordan olinadigan daromadlar;
- davlat xo'jaliklaridan olinadigan daromadlar;
- aholidan olinadigan mablag'lar.

Byudjet daromadlarining yuqorida sanab o'tilgan har bir guruhlari daromadlarning manbalari, to'lovlarning turiari va hokazolar bo'yicha kichik guruhlarga bo'linishi ham mumkin. Masalan, davlat xo'jaliklaridan olinadigan daromatlarga davlat korxona va tashkilotlarining to'lovlari, davlat mulkini sotishdan olinadigan daromadlar, davlat tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan olinadigan daromadlar kiradi. Aholidan byudjetga kelib tushadigan mablag'lar esa soliqlar va boshqa ixtiyoriy to'lovlardan iborat bo'lishi mumkin. O'z navbatida, har bir kichik guruhlarga biriktirilgan byudjet daromadlari tushumlarning alohida turidan iborat. Masalan, davlat korxonalari tomonidan byudjetga o'tkaziladigan daromadlarning tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, daromad (foyda) solig'i va boshqalar kiradi. Shuningdek, davlat mulkidan olinadigan daromadlar tarkibi bojxona daromadlaridan, egasiz va musodara

qilingan mol-mulkni, talab qilib olinmagan yuklar va pochta jo'natmalarini, meros huquqi bo'yicha davlatga o'tgan mol-mulklarni realizatsiya qilishdan olingan tushumlardan iborat. Davlat tashkilotlari va muassasalari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlarga yo'l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan undiriladigan yig'imlar, tovar belgilarini qayd etganlik uchun yig'imlar, o'lchov asboblari davlat tekshiruvidan o'tkazilganligi uchun haq, sud va arbitraj organlari hamda notarialidoralari tomonidan aholiga ko'rsatilgan xizmatlar uchun olinadigan haq va boshqalar kiradi.

Byudjet daromadlari majburiy yoki ixtiyoriy tarzda jalb qilinishi mumkin. Daromadlarni majburiy shaklda jalb qilish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ixtiyoriy shakldagi to'lovlarga davlat obligatsiyalarini va pul-buyum lotereyalarini realizatsiya qilishdan olingan tushumlar kiradi. Byudjet daromadlarini shakllantirishdagi majburiylik yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ma'lum bir mablag'lar belgilangan muddatlarda byudjetga o'tkazilishi zarurligini anglatadi. U yoki bu to'lovni qonun tomonidan majburiy deb e'tirof etilishi to'lanmagan summalarning majburiy undirilishini ko'zda tutadi. Bu holat byudjetning ijrosi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lib, mablag'larni to'liq va o'z vaqtida byudjetga jalb etishga yo'naltirilgan.

Sub'ektlarning daromadlari byudjet ixtiyoriga ikki xil metodlarni qo'llash evaziga olinishi mumkin:

- 1) solikli metodlar;
- 2) soliqsiz metodlar.

Solikli metodlar uchun mablag'larning byudjet foydasiga aniq belgilangan miqdorlarda va oldindan o'tatilgan muddatlarda undirilishi xarakterlidir. Soliqlarning undirilishi mamlakat yalpi ichki (milliy) mahsuloti va milliy daromadining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi bilan bog'liq. Ular yordamida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va aholiga tegishli bo'lgan mablag'larning bir qismi davlat ixtiyoriga o'tkaziladi. Soliqlarning tarkibiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, daromad (foyda) solig'i, yer solig'i, mol-mulk solig'i va boshqalar kiradi.

Soliqsiz daromadlar davlatga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlardan olinadigan to'lovlardir. Davlat mulkiga aylanadigan va qaytarilishi talab etilmaydigan mablag'lar ham byudjetning daromadlari bo'lishi mumkin. Biroq ayrim to'lovlar davlatning ixtiyoriga vaqtinchalik foydanish uchun o'tkazilishi ham mumkin. Bunday holda davlat olingan mablag'larni sarf etsa-da, bu mablag'larni belgilangan muddatlarda va to'liq ravishda qaytarishga majbur. Ana shunday byudjet daromadlarining ko'rinishlaridan biri davlat obligatsiyalarini realizatsiya qilishdan olingan tushumlar hisoblanadi. Byudjet daromadlariga ular shartli ravishda, faqat shu yilning byudjeti daromadlari nuqtai nazaridan kiritilishi mumkin,

Byudjetlarning barcha daromadlari u yoki bu byudjetlarga biriktirilishiga qarab ikkiga bo'linishi mumkin:

- 1) byudjetning o'z daromadlari;
- 2) byudjetning tartibga keltiruvchi daromadlari;

Mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq doimiy asosda tegishli byudjetga to'liq yoki qisman biriktirilgan daromadlar byudjetning o'z daromadlari deyiladi.

Ularga tegishli byudjetlarga biriktirilgan solikli va soliqsiz daromadlar kiradi. Navbatdagi moliyaviy yil (yoki uzoq muddatli davr asosida, odatda 3 yildan kam bo'lmagan holda) uchun boshqa darajadagi byudjetlarga ajratmalar normativi o'rnatiladigan soliqlar va boshqa to'lovlar byudjetning tartibga keltiruvchi daromadlari deyiladi.

Byudjet daromadlarining deyarli barchasi sarflanish nuqtai nazaridan oldindan mo'ljallangan maqsadlarga ega emas. Ular umumiy fondga tushiriladi va ulardan odatdagi moliyalashtirish tartibida foydalaniladi. Byudjet daromadlarining faqat ba'zi birlarigina oldindan belgilangan maqsadlar uchun mo'ljallangan. Ularning tarkibiga ijtimoiy sug'urta badallarini kiritish mumkin.

Soliqlar, to'lovlar, yig'imlar, bojlar va majburiy ajratmalarning alohida shakllari va turlarining yig'indisi byudjet daromadlarining yagona tizimini shakllantiradi. Turli sub'ektlardan kelib tushadigan byudjet daromadlari umumdavlat ehtiyojlarini ta'minlab, bir-biri bilan o'zaro bog'langandir.

Byudjet daromadlarining tarkibi va uning tuzilmasi doimiy bo'lmasdan, mamlakat taraqqiyoti va davlat oldidagi vazifalarning o'zgarishiga muvofiq ravishda o'zgarib boradi. Masalan, keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining daromadlari uchun quyidagi tarkib va tuzilma shakllangan: mamlakatimiz Davlat byudjetining daromadlari so'nggi yillarda to'g'ri (bevosita) soliqlar, egri (bilvosita) va resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i, ustama foydadan olinadigan soliq, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq va boshqa daromadlardan tarkib topmoqda. Davlatimiz byudjetining daromadlarini tarkibiy tuzilmasida egri (bilvosita) soliqlar, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, bojxona bojlari, jismoniy shaxslardan olinadigan yagona boj to'lovi va transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moliga jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Aynan shu guruhga kiruvchi soliqlar hisobidan

Davlat byudjeti daromadlarining yarmi (50,23%) shakllanayapti. Bu soliqlar orasida qo'shilgan qiymat solig'i (28,15%) va aksizlar (16,47%) Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda alohida ahamiyatga egadir. Birgina qo'shilgan qiymat solig'i yordamida Davlat byudjeti daromadlarining 1/4 qismidan ko'prog'i shakllanayotganligi bu soliqning byudjet daromadlari tuzilmasidagi o'rnii qanday ekanligini yaqqol ko'rsatayapti.

1.2 Davlat byudjeti daromadlarini huquqiy tartibga solish yo'llari

O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimini isloh qilish mahalliy byudjetlarning samarali boshqarishning hozirgi kundagi amaliyoti va nazariyasi oldiga uning qator yangi muammolariga yechim topishni ko'ndalang qo'ymoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi taraqqiyotining hozirgi

bosqichi davlatning yaxlit byudjet va ijtimoiy siyosatning manfaatlari mustahkamligini ta'minlash asosidagi o'ta mas'uliyatli vazifalari samarali boshqarishni talab etmoqda, ushbu vazifaning ikki jihatini ajratib ko'rsatish muhimdir.

Birinchidan, davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijobiy ijrosi yoki hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvining oldini olishidir, ikkinchidan, mahalliy byudjetlar huquq va majburiyatlarining kengayib borishi sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilashning zarurligidir. Ushbu har ikki jihatning o'zaro bog'liq tarzda birgalikda olib borilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi kundagi o'ta muhim muammosini hal qilishga imkon beradi. hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini hamda iqtisodiy erkinlashtirish shart-sharoitida mahalliy byudjetlarni shakllantirish (shakllanishi) va ijrosini ta'minlashda mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy huquqiy rolini oshirish yo'nalishlarining ilmiy tadqiqi hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Biz bilamizki, byudjetning mustaqilligi byudjet tizimining asosiy tamoyili sifatida belgilangan bo'lib, ushbu tamoyil turli darajadagi vakolatli hokimiyat

organlarining o'zlariga beriladigan vakolatlari doirasida byudjet jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish huquqlarini anglatadi. har bir darajadagi byudjet daromadlarining o'z maqsadlari, shuningdek, joylardagi vakolatli hokimiyat organlarining qonunlarida belgilangan doiralarida mahalliy soliqlar va yig'imlar soliq stavkalarini o'zgartirish huquqini qonun asosida mustahkamlab qo'yilgan. Daromadlar manbalar belgilanishi va ular mahalliy byudjetlarga tushishi qonun asosida (belgilab) mustahkamlab qo'yilishi mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligi va byudjetlarni shakllantirishdan manfaatdorligini oshiradi.

Ma'lumki, hozirgi zamon iqtisodiyoti huquqiy, iqtisodiy tashkiliy va boshqa mexanizmlar bilan tartibga solinadi. Davlat bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun asos bo'ladigan ayrim xizmatlarni va huquqiy bazani ta'minlash vazifalarini bajaradi. huquqiy bazalarni ta'minlash yuridik va jismoniy shaxslarga huquq berish va ularning majburiyatlarini belgilash va boshqa sohalarda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, mahalliy byudjetlarni samarali boshqarish, huquqiy iqtisodiy me'yorlarni belgilash va korxonalarning faoliyat ko'rsatishi uchun tartib qoidalarni ishlab chiqarish tegishli davlat tashkilotlarining asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan "byudjet tizimi to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida byudjet tizimiga quyidagicha ta'rif berilgan: "byudjet tizimi turli darajadagi byudjetlar va byudjet manbalari oluvchilar yig'indisini, byudjetlarni tashkil etishi va tuzish printsiplarini, byudjet

jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, byudjet va byudjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida, vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi".

Byudjet tizimi yagonaligi tamoyili haqida ketayotgan bo'lsa, huquqiy baza byudjet tasnifi byudjet shakli, byudjet jarayoni tamoyillari, pul tizimi birligi, davlat byudjeti mablag'lari bilan hisob yuritish hisob tayyorlash va (hisob) nazorat qilishda yagona tartib amal qiladi. Amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, barcha daromadlar va xarajatlar davlat byudjeti tizimi daromadlari o'rtasida taqsimlanadi. Byudjeti daromadlari va xarajatlarni taqsimlash deganda, har bir darajadagi byudjetga kiritilishi lozim bo'lgan daromadlar va xarajatlar turi va hajmini belgilash tushuniladi. Byudjet tizimining barcha xarajatlari turli byudjetlar o'rtasida taqsimlanib u yoki bu xarajatni muayyan byudjetga qaratilishini anglatadi. Bu birinchidan moliyalashtirilayotgan muassasaning respublika va mahalliy organlarga qarashli bo'lishi, ikkinchidan moliyalashtirilgan tadbirning ahamiyatidir. Respublika byudjeti davlat byudjetining umumdavlat to'g'risidagi tadbirlarni moliyalashda foydalanadigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. "Mahalliy byudjet davlat byudjetining tegishli viloyat, shahar, tuman pul mablag'lari majmuasini (jamg'armasini) tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori huningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi". O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti asri yo'l tutishi davrida byudjetning va mahalliy byudjetlarining respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshdi.

Respublikamizda byudjet tizimida olib borilayotgan o'zgarishlarning markazida davlat byudjeti daromadlarini to'liq va o'z vaqtida tushirish respublika va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan iqtisodiy- ijtimoiy soha xarajatlarni rejalashtirishda va xarajatlarni moliyalashtirishda yangi shakl va usullardan samarali foydalanish, byudjetdagi taqchillikni oshishiga ta'sir ko'rsatuvchi sabablarni oldini olish, ish haqi va nafahalarni o'z vaqtida to'lashni ta'minlash, shuningdek, byudjet maqsadlaridan foydalanish jarayonida byudjet intizomiga rioya etish masalalari turadi. Biz bilamizki, barcha huquqlar singari moliya huquqining asosiy manbai O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moliya munosabatlari tartibga solishning bosh qoidalarini, bu sohadagi davlat idoralari faoliyati asoslarini belgilash bilan moliya huquqi sohasining yanada rivojlanishiga yordam beradi.

Davlat byudjeti mablag'laridan oqilona foydalanish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarorlari va nizomlar ishlab chiqilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan bir qancha qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining yo'riqnomalari qabul qilingan.

Moliya huquqiga oid adabiyotlarda moliya tizimi moliya organlari, kredit muassasalari, soliq xizmati organlari o'z ichiga hamrab olgan bo'lib, ularga davlat

pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish bo'yicha tegishli vakolatlar berilgan.

Viloyat, tuman, shahar hokimiyat organlari doimo mahalliy byudjetlarning daromadlarini oshirish va bu moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanish tadbirlarini olib borishlari kerak. Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan kerakli, jumladan mahalliy byudjetlar daromad bazasini ko'paytirish byudjetlar xarajatlar qismini tarkibiy qayta qurish kabi sharoitlar yaratilganda, balanslashtirilgan sog'lom, etarli byudjetni shakllantirish mumkin.

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlar va yig'implarni byudjetga o'z vaqtida to'liq o'tkazilishini ta'minlash to'lov intizomini mustahkamlashni talab etadi, bu vazifaning hal etilmaganligi soliq siyosati ta'sirchanligi va samaradorligini past ekanligidan, soliqlarning o'z funktsiyalarini to'liq bajarmayotganligidan dalolat beradi.

Davlat byudjeti daromadlariga ta'sir etuvchi omillar juda ko'p, ularga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ya'ni, yalpi ichki mahsulot hajmi, narxlarning o'sishi darajasi, aholining ish bilan bandligi hamda aholi daromadlari;
- Davlatning fiskal siyosati, ya'ni soliq stavkalarini o'zgartirish, ular bo'yicha imtiyozlar berish, xarajatlarni kamaytirish yoki ko'paytirish;
- Boshqa omillar.

Davlat byudjeti to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirilmasligi davlat uchun zarur bo'lgan daromadlarning o'z vaqtida olinmasligiga va buning natijasida davlat xarajatlarini moliyalashtirishda jiddiy muammolarning vujudga kelishi ya'ni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Byudjetga to'lovlarning to'lov intizomini mustahkamlash yo'li bilan o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash masalasi ilmiy jihatdan o'zining to'liq yechimini topmagan desak bo'ladi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilingan davr mobaynida umumdavlat soliqlari bo'yicha to'lovsizlik darajasi yuqoriligicha qolgan. Bu esa umumdavlat soliqlarni undirish yuzasidan soliq inspeksiyasi xodimlari tomonidan olib borilayotgan tadbirlarning samaradorligi darajasini past ekanligidan dalolat beradi. Ayni paytda umumdavlat soliqlari bo'yicha o'z vaqtida undirilmagan to'lovlar salmoqining pasayish tendentsiyasiga ega ekanligi bu borada ijobiy siljishlarning yuzaga kelganligini anglatadi.

Bugungi kunda mahalliy byudjetlar daromadlarini soliq yukini o'stirish hisobiga ko'paytirish yaxshi samara bermaydi. Shuning uchun soliq imtiyozlarini qisqartirish va byudjet muolajalarini takomillashtirish, shuningdek, mahalliy va umumdavlat soliq va yig'implarini to'plashni ta'minlaydigan to'lov intizomiga rioya qilish hisobiga mahalliy byudjetlar daromadlarini ko'paytirish mumkin.

Soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari ham davlat uchun, ham bozor qatnashchilari faoliyat ko'rsatishi uchun soliq tizimidagi iqtisodiy islohotlarni davom ettirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda soliq islohotlarining ustivor yo'nalishlari mahalliy byudjetlar daromad bazasini ko'paytirishga qaratilgan bo'lishigina emas, balki ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun tadbirkorlarni, ishbilarmonlarni faolligini oshirish lozim.

Jumladan:

-Soliq qonunlarini yanada aniqlashtirish soliqqa doir hujjatlarni soddalashtirish maqsadida uni takomillashtirish;

- Soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliq stavkalarini kamaytirish;
- Ayrim soliq to'lovchilar bilan bo'ladigan soliq munosabatlarida neytrallikni ta'minlash, qator soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish va bekor qilish bir xil soliq bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish;
- qonun hujjatlariga rioya qilishda qattiq tezkor nazoratni belgilash fuqarolar va tashkilotlarni soliq to'lash bo'yicha mas'uliyatni oshirishdan iborat.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jarayonida avj olgan tub islohotlar moliya-soliq tizimida ham o'z samarasini ko'rsatmoqda. Soliq Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Byudjet to'g'risida"gi qonuni qabul qilinganligi moliya byudjet siyosatining amalga oshirishning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoiti davrida byudjet masalasi juda muhim va murakkab masaladir. har bir hududning rivoji, aholining turmush sharoiti, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila va shaxslarning etarli darajada ijtimoiy himoya qilinishi, har bir hudud davlat hokimiyat organlarining moliyaviy masalalarini to'g'ri hal qilishga bog'liq, bunda mahalliy byudjetlarga tushadigan soliq va yig'implarning turi miqdorini bilish alohida o'rin tutadi.

Binobarin, iqtisodiyotimiz Barqarorligi va uning yo'nalishi byudjet tizimining mustahkamligi bevosita moliya soliq idoralari faoliyatining samaradorligiga bog'liqdir. Viloyatlarda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilib sezilarli natijalarga erishmoqda. Barcha sohalar qatori moliya byudjet siyosatida ham tub o'zgarishlar amalga oshmoqda, shu bilan bir qatorda moliya tizimi xodimlarning vazifalari hamda mas'uliyatlari ham oshib bormoqda.

II. Bob. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliq siyosatining ahamiyati

2.1. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliq siyosati

Soliq siyosatida soliqlarning iqtisodiyotni tartibga solish instrumenti ekanligi ham o'z aksini yaqqol topishi lozim. Chunki, sof fiskal funktsiyadan tashqari, soliqlar va yig'imlar tizimi ijtimoiy ishlab chiqarishga, uning tarkibiy tuzilishiga va dinamikasiga, joylashishiga, ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga iqtisodiy ta'sir ko'rsatuvchi mexanizm sifatida ham xizmat qiladi. Soliqlar yordamida tadbirkorlar faolligini rag'batlantirish yoki cheklab qo'yish, demak, tadbirkorlik faoliyatining u yoki bu tarmoqi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Soliqlar korxonalarda ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini qisqartirish, jahon bozorida milliy korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Soliqlar orqali proteksionistik iqtisodiy siyosat yurgizish yoki to'lovlar bozori erkinligini ta'minlash mumkin. Soliqlar davlat va mahalliy byudjetlar daromadlarining asosiy qismini tashkil qilib, byudjetning xarajatlar qismi orqali iqtisodiyotga moliyaviy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida davlat moliya-byudjet mexanizmi ta'sirining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- byudjetdan subsidiyalashtirish, masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining
- ortiqchasini sotib olishga, chakana baholarni bir xil darajada ushlab turishga va h.k;
- iqtisodiyotga davlat investitsiyalari;
- dotatsiya yoki qaytariladigan ssuda ko'rinishida korxonalarni to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalashtirish, kredit siyosati. Davlat kreditlarining olinishi riskdan qutilishga va kompaniya mablag'larining ozod bo'lishiga olib keladi;
- zaruriyat tuqilgan hollarda pul-kredit cheklanishlarini joriy etish. Bular qatoriga baholarni tartibga solish, iste'mol kreditining shartlari, kreditni cheklash, valyuta nazorati kabilar kiradi;
- litsenziyalashtirish;
- xususiy savdo to'g'risidagi qonunchilik ; mahsulotlarni standartizatsiyalashtirish, davlat arbitraji, trestlarga qarshi qonunchilik;
- ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini moliyalashtirish;
- soliq siyosati;

Yuqoridagilardan tashqari, ortiqcha ishlab chiqarish tanazzuli sharoitida davlat restriksionistik siyosat yurgizadiki, uning faoliyati tovarlar ishlab chiqarishni cheklashdan iboratdir. Bir vaqtning o'zida davlat bunday sharoitda ijtimoiy ishlarni amalga oshirishni, subsidiyalar va arzon kreditlar berishni, sotib olishni ko'paytirishni o'z zimmasiga oladi.

Iqtisodiyotni boshqarishda iqtisodiy dasturlashtirishdan foydalanish xo'jalik vazifalarini kun tartibiga qo'yishni va ularni echish bo'yicha tadbirlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi. Buning asosiy maqsadi davlat tadbirlarini, byudjetning yo'nalishini aniqlash; foiz stavkasini va kreditlashtirish tartibini

o'zgartirish orqali pul bozorini boshqarish; ish haqi va ijtimoiy ehtiyojlar sohasidagi siyosat va boshhalarni muvofiqlashtirishdir. Milliy iqtisodiyotni topshirilgan yo'nalishdan biror bir tarzda o'zgartirish davlatning investitsion siyosatga aralashuvisiz sodir bo'lmaydi. Moliyaviy imtiyozlarning shartlari davlat tomonidan belgilanganligi uchun bu narsa unga alohida tarmoqlarning rivojlanishini yoki birinchi darajali vazifalarini hal etishga yo'naltirish imkonini beradi.

Iqtisodiyotni tartibga solishga mahalliy boshqaruv organlari ham faol jalb qilinmoqda. 80-yillarda AQShdagi 326 yirik shaharning hokimlari so'rovnomada ishtirok etib, ularning 90 foizga yaqini eng muhim muammolar orasida iqtisodiy rivojlanish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashni alohida ko'rsatganlar. Bir vaqtning o'zida har to'rtinchi hokim o'zining ahamiyati va muhimligi jihatidan aholi bandlik darajasini o'sishini 1-o'ringa qo'yishgan bo'lsa, ularning 70 foizi bu masalani birinchi darajali uch vazifaning biri sifatida qayd etgan.

Ana shu savol natijalarini inobatga oladigan bo'lsak, ustuvor yo'nalishlar quyidagi ko'rinishni oladi:

- shaharlar(tumanlar) daromad bazasining o'sishi (soliq bazasining mustahkamlanishi
- nazarda tutilyapti);
- amaldagi korxonalar va bor bo'lgan ish joylarini saqlab qolish;
- iqtisodiyotni mutanosibli sifat o'sishiga erishish;
- sanoat va tijorat bazasining rivojlanishi;
- xaroba va vayronalarni yo'q qilish;
- qoloq(kambahal) tumanlarga yordam berish.

Mahalliy boshqaruv organlari o'zlarining hududlariga xususiy kapitalni jalb etishdan manfaatdor bo'lib, ular investorlarga bilvosita yordam berishga har doim tayyordir.

Bular er maydonlari va binolar sotib yoki ijaraga olinayotganda sotuv bahosi yoki ijara haqiga nisbatan chegirmalarning berilishiga, zayomlar bilan ta'minlashda kafolatli fondlarda ishtirok etishda, sanoat zonalarini yaratishda namoyon bo'ladi. Sanoat zonalarida hududlar va binolar korxonalarga qulay moliyaviy sharoitlarda taqdim etiladi. Ayrim hollarda mahalliy hokimiyat organlari hisobidan maxsus ravishda xo'jalik yuritishning yangi turlarini rivojlantirishga imkon beradigan ishlab chiqarish inshootlarini qurish amalga oshiriladi. Albatta, rag'batlantiruvchi choralarga ularning doimiy ravishda yoki vaqtinchalik mahalliy soliqlardan ozod etilishi ham kiradi.

Davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan iqtisodiy infrastrukturaga kapital quyilmalar foyda olishga mo'ljallangan bo'lsada, ular pirovard natijada xususiy kapital foydasining oshishiga olib keladi. Eng avvalo bu transport kommunikatsiyasi, aloqa liniyalari, sanoat, suv ta'minoti, tozalash inshootlari, er maydonlarini sanoat qurilishiga tayyorlash tizimlarini qurish va ularni saqlash xarajatlaridan iboratdir.

Bir necha mamlakatlarda alohida mintaqalardagi hududlarda investitsiyalarning joylashtirilishi o'ziga xos tarzda rag'batlantirilib kelinmoqda. Masalan, shahar chetidagi tumanlarda investitsiyalar joylashtirilishining

rag'batlantirilishi bunga misol bo'la oladi. Iqtisodiy jihatdan qoloqbo'lgan tumanlarda esa ishlab chiqarishni qayta qurish va modernizatsiyalashga mo'ljallangan investitsiyalarning rag'batlantirilishi maqsadga

muvofiqdir. Jumladan, byudjetdan kapital quyilmalarga to'g'ridan-to'g'ri subsidiyalar ajratilishi mumkin. Bunday tartib, masalan Germaniyada keng qo'llanilmoqda.

XX asr 80-yillari ikkinchi yarmidan boshlab juda ko'p mamlakatlarda yangi, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yaratishni rag'batlantirish uslublaridan foydalanilmoqda.

Eski sanoat tumanlari ko'pchilik hollarda xo'jalikning eskirgan industrial tarkibiy tuzilishiga egadir. Albatta, oldingi yillar bu tumanlar yuqoridarajada rivojlangan yoki taraqqiy etgan tumanlar qatoriga kirgan bo'lsa-da, keyinchalik ilmiy-texnika inqilobining ta'siri ostida boshqa tumanlardan ortda qolgan va ular o'z mintaqalarining iqtisodiy o'sishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmay qoldilar.

Masalan, Buyuk Britaniyada bunday mintaqalar qatoriga Uels, Shotlandiya, Kornuell, Angliyaning Shimoliy rayoni, Shimoliy Irlandiya, Mersisaytlarni kiritish mumkin. Belgiyada bu toshko'mir va metallurgiya sanoat rayonlari bo'lsa, AQShda to'qimachilik sanoati kuchli rivojlangan mamlakat shimoli-sharqidagi bir necha shtatlarni ko'rsatsa bo'ladi. XX asrning ikkinchi yarmida bu rayonlar oldida sanoatni, yangi ishlab chiqarishni rivojlantirishga, infrastrukturani modernizatsiya qilishga va ishchi kuchini qayta tayyorlashga yo'naltirilgan tarzda qaytadan o'zgartirish vazifasi ko'ndalang bo'lib qoladi.

Ushbu vazifani bu jarayonlarda faqatgina davlatning faol ishtirok etishi, u tomonidan turli soliq imtiyozlari va ta'sir etishning boshqa moliyaviy uslublarini qo'llash evaziga bajarish mumkin edi. Shuning uchun ham Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya, Niderlandiya, Norvegiya kabi mamlakatlarning rivojlanishi lozim bo'lgan rayonlarda davlat investitsiyalaridan,

subsidiya va maqsadli zayomlardan foydalanildi, ushbu rayonlarda milliy lashtirilgan tarmoqlarning korxonalari joylashtirildi, keng maqsadlarga mo'ljallangan ishlab chiqarish binolari qurildi, ular tadbirkorlarga ijaraga berildi yoki qulay moliyaviy shartlar va mulk soliqidan vaqtinchalik ozod qilingan holda sotildi. Hozirgi paytda Germaniyada sharqiy erlarda kapitalni investitsiya qilayotgan fermalar yirik soliq imtiyozlarini olayapti. Po'lat quyish sanoati joylashgan Rur viloyati ham soliq imtiyozlari bilan qo'llab-quvvatlanib turibdi. qishloq joylarida sanoatning zamonaviy tarmoqlarini rivojlantirish ag'batlantirilmoqda. Lyubek shahrining qadimiy kvartallari ta'mirlash ishlari bilan shug'ullanuvchi firmalarning yirik soliq imtiyozlarini olish evaziga saqlab qolindi.

Gretsiyaning Frakiya viloyatida matrekning chegara viloyatlari va rollaridagi investitsiyalar, soliq imtiyozlari bilan rag'batlantirilmoqda. Iqtisodiy faoliyatni jonlantirish uchun moliyaviy ta'sir ko'rsatishning sanoatda kapital quyilmalarini subsidiyalashtirish, alohida tumanlar uchun suv va elektroenergiya haqining imtiyozli tariflari, kreditlashtirishning imtiyozli shartlari (past foizli zayomlar, uzoq muddatli zayomlar, kreditlar bo'yicha dotatsiyalar) kabi shakllaridan foydalanilmoqda.

Ba'zi bir mamlakatlarda, masalan, Germaniya va Frantsiyada ayrim munitsipalitetlar hududida har bir yangidan yaratilgan ish joyi soliq imtiyozlari bilan birgalikda maxsus byudjet ustamolari joriy etilgan. Mahalliy byudjet organlari xo'jalikning yangi tarmoqlari uchun ishchi kuchini tayyorlash bilan bog'liq xarajatlarning kattagina qismini o'z zimmasiga olyapti. Bundan tashqari, ishchi-xizmatchi va mutaxassislarni tayyorlash hamda qayta tayyorlashni tashkil etishni mustaqil ravishda o'z zimmasiga olgan korxonalar soliq imtiyozlariga egadirlar.

Iqtisodiyotning rivojlanish darajasiga moliyaviy ta'sir ko'rsatish faqat rag'batlantiruvchi xarakterga ega bo'lmay, balki to'xtatib turuvchi yoki ta'kiklovchi xarakterlarga ham egadir. Bunday zaruriyat avvalo ishlab chiqarish va aholi kontsentratsiyasi yuqoribo'lgan rayonlarning rivojlanishini tartibga solish uchun vujudga keladi. Aholi va xo'jalik faolligining haddan ziyod kontsentratsiyalashuvi, atrof-muhit, aholishunoslik, resurslar bilan ta'minlash boshhalarda mavjud muammolarning yanada keskinlashuviga olib keladi. Ta'kidlash joizki, cheklab yoki ta'qiqlab qo'yish vazifasi, eng avvalo, Buyuk Britaniya va Frantsiyada paydo bo'ldi. Bu erda monotsentrik tarkibiy tuzilish o'z ta'sirini ko'rsatdi, shaharlar va aglomeratsiyalar ierarxiyasida yagona shahar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Yaponiyaning Tokaydo rayonida aholi juda ko'p joylashgan bo'lib, u erda uchta eng yirik munitsipalitet -Tokio, Nagoyya, Osaka joylashgan.

Davlat va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan to'xtatib turuvchi, ta'qiqlovchi yoki to'shinlik qiluvchi choralar asosida tadbirkorlik faoliyatini qo'shimcha ravishda soliqqa tortish va litsenziyalashtirish yotadi. Ana shu maqsadlar uchun qo'shimcha ravishda soliqqa tortish amaliyoti Niderlandiya va Yaponiyada qo'llanilmoqda. Barqarorlashtiruvchi soliqlar Germaniyada ham mavjud. Buyuk Britaniya, Frantsiya va Italiyada litsenziyalashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu o'rinda litsenziyalashtirishni ham qo'shimcha mahalliy soliq-litsenziya yig'imi sifatida haramoq kerak. Yaponiyada bu muammo er soliqi stavkasini manipulyatsiya qilish evaziga hal etiladi.

U yoki bu shaklda soliqlarni oshirish "qaynoq" kon'yunkturani ushlab turishning eng samarali va ishonchli vositasidir. Bunday usullardan yana biri soliq imtiyozlarini bekor qilish hisoblanadi.

Ayrim hollarda yangi soliqlarning joriy etilishi sof tartibga solish maqsadlarini ko'zda tutadi. Buning klassik misollaridan biri asrning boshida Germaniyada joriy etilgan va hozirgi paytga qadar o'zgarmasdan kelayotgan sirka kislotasi soliqidir. Uning joriy etilishiga sun'iy sirka kislotasini yaratish va shu maqsadda vinoni sarflashga barham berish zaruriyati sabab bo'ldi. Bu soliqlardan keladigan pul tushumlari soliqni undirish xarajatlarini zo'rg'a-zo'rg'a qoplasada, texnik vazifa hal qilingan va tartibga soluvchi iqtisodiy maqsadga erishilgan edi. Soliq hozirgi kunda Germaniya byudjetiga bor yo'qi bir necha million evro keltirsada, hamon tarixiy relikviya shaklida saqlanib qolmoqda.

Soliqlarni oshirish evaziga faqat iqtisodiy vazifalarni emas, balki ijtimoiy vazifalarni ham hal etish mumkinligi to'g'risida yana o'sha Germaniya amaliyotidan zamonaviy bir misol keltiraylik. Bu mamlakatda chekishning zararli

ekanligi to'g'risida uzoq vaqt davomida amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari natijasiga ko'ra tamakiga qo'yilgan aktsizning oshirilishi natijasida chekuvchilar soni bir necha marta kamaygan.

Soliqlar yordamida g'arb mamlakatlarida ekologiya muammolari ham hal etilmoqda. O'z vaqtida Germaniya sanoati avtomobillarni katalizatorlar bilan jihozlash to'g'risidagi qarorga qarshilik ko'rsatgan edi. O'shanda katalizator bilan jihozlangan avtomobillar uchun soliq keskin kamaytirildi (pasaytirildi). Ayni paytda eski dvigatellarda foydalaniladigan va tarkibida qo'rg'oshin hamda boshqa qo'shimchalar qo'shilgan benzinning turlari bo'yicha aktsizlar miqdori oshirildi. Katalizatorli avtomobillarda foydalaniladigan benzinning turlari bo'yicha aktsiz yig'implari ham pasaytirildi. Ana shu xarajatlar tiklandi va qoplandi.

Bugungi kunda ham Germaniyada avtomobillar uchun soliq ikki omilga bog'liq:

- 1) tsilindr hajmi, ya'ni dvigatel kuvvatiga;
- 2) katalizator mavjudligi (yo'qligi)ga.

AQShda XX asrning 70-yillaridanoq ekologik tozalikni hisobga oluvchi avtotransport uchun tabahalashtirilgan soliqlar qo'llanib kelinayapti.

Davlat iqtisodiyotining rivojlanishiga baholarni shakllantirish orqali ham moliyaviy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, hozirgi paytda Evropa Ittifoqi mamlakatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olish bahosi faqat bozor uslublari yordamida o'rnatilib qolmasdan, balki ko'p hollarda Bryusselda joylashgan Evropa Ittifoqi rahbar organlari tomonidan direktiv tarzda belgilayapti. Bunda baholarni mahsulotni ishlab chiqarish haqiqiy tannarxidan ancha yuqoriroq tarzda belgilash va uni shu darajada ushlab turishga harakat qilyapti. Buning evaziga esa ikki maqsadga erishilmoqda. Birinchisi-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi fermerlar qo'llab-quvvatlanmoqda.

Ikkinchisi- iste'mol mahsulotlaridan samarali foydalanishga erishilmoqda. Sun'iy ravishda yuqoribaholar ushlab turilgani uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari tejab-tergab sarflanmoqda, talab real ehtiyojdan oshmayapti va bu narsa bir oz ortiqcha mahsulotlarning paydo bo'lishiga, jilla qursa mahsulot taqchilligining bo'lmasligiga imkon beryapti.

Juda ko'p mamlakatlarda mahalliy boshqaruv organlari ijtimoiy foydalanishga mo'ljallangan tarmoqlar mahsulotlarining(xizmatlar) baholarini ham tartibga solib turadi. Bozor erkinligi sharoitida baholarni tartibga solib turish zaruriyati ma'lum bir mahsulot turiga me'yoriy tariflar bo'yicha ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyojlari mavjudligi bilan belgilanadi. Bu darajadagi tartibga solishning asosiy printsiipi ijtimoiy foydalanishga mo'ljallangan tarmoq korxonalari foyda normasini asosiy kapitalga nisbatan 5-7 % darajada cheklab turishdir. AQShda, masalan, shtatlar komissiyasi agar kompaniyalar foyda normasi belgilangan darajadan ortib ketadigan bo'lsa, suv, elektr energiya va shunga o'xshash boshqa mahsulotlar uchun yangi tariflarni joriy etish mumkin.

Shunindek, Germaniya va Yapoinyada ham shunday tartib mavjud bo'lib, bu mamlakatlarda mahalliy boshqaruv organlari alohida mintaqalar bo'yicha kommunal xizmatlarning yuqori chegaradagi miqdorini belgilab, baholarni tartibga solib turadi.

Bu erda bir holat ustida alohida to'xtalib o'tmoq lozim. Gap shundaki, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti tadbirkorlik faoliyati erkinligiga asoslangan. Raqobat - bozor mexanizmi resurslari taqsimlanishini tartibga soladi va tovarlar ishlab chiqarish xarajatlari hamda o'rtacha foyda normasini hisobga olgan holdagi darajani aks ettiradigan muvozanat bahoning o'rnatilishini ta'minlaydi. Raqobat sharoitida bozorda kompaniyalar o'zlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ixtiyoriy ravishda baho o'rnata olmaydilar. Ular o'zlarinikiga o'xshash mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi ferma va korxonalar tomonidan belgilangan baholarni hisobga olishlari kerak. Raqobat bozori iste'molchiga

tanlov imkoniyatini beradiki, bu uning o'ziga xos eng asosiy xususiyatidir. Kurash jarayonida sotib oluvchi uchun baholar pasayadi va ishlab chiqarish xarajatlari darajasiga yaqinlasha boradi.

Biroq monopoliyalar vujudga kelganda bozor mexanizmi yaxshi ishlamaydi va bu narsa resurslarning samarasiz taqsimlanishiga va foydalanilishiga hamda bahoning o'sishiga olib keladi. Masalan, ikkinchi jahon urushi tugaguniga qadar Germaniya yirik kartellar mamlakati bo'lib ular juda katta iqtisodiy va siyosiy quvvatga ega edi. Monopoliyalar faoliyati salbiy oqibatlarni cheklash bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Ular orasida firmalar daromadini progressiv soliqqa tortish va ustama foyda soliqi alohida o'rin tutadi. Barcha rivojlangan mamlakatlarda trestlarga qarshi qonunchilik amal qiladi. Masalan, Germaniya qonunlarida raqobat qoidasi belgilab

berilgan va ularda erkin raqobatning rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratilgan.

Jumladan, tadbirkorlar o'rtasida baho to'g'risidagi kelishuv qonun yo'li bilan ta'qiqlangan.

Trestlarga qarshi qattiq qonunchilik AQSh va Yaponiyada ham amal qilib kelmoqda. Lekin bu qonunlar infrastruktura tarmoqlariga - transport, bank ishi, kommunal xizmatlarga tegishli emas. Ayrim hollarda bu qonunlar sanoatning qazib chiqaruvchi tarmoqlariga, ma'lum darajada qishloq xo'jaligiga ham xos emas. Bu tarmoqlarda davlat mahsulot ishlab chiqarish hajmini, baholarni va bozorni egallashni tartibga solib turadi. Raqobat bu erda tarmoqlarga oldiga qo'yilgan vazifalarni muvafaqqiyatli hal etishga yordam berolmaydi deb hisoblangan. Bu tarmoqlarda davlat korxonalarining salmoqi katta bo'lib, ularning asosiy maqsadi foyda olish emas, balki jamiyatning ehtiyojini qondirishdir.

2.2. Yakkabog' tumani byudjetining daromadlar va xarajatlar tarkibi va tahlili

Qashqadaryo viloyati o'zining iqtisodiy salohiyati , moliyaviy Barqarorligi, shu hududda joylashgan er osti va er usti boyliklari, mehnat resurslari va korxonalari yuridik va jismoniy shaxslar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Biz o'rganayotgan tizim Moliya tizimi davlat byudjeti daromadlarini ortishi va Yakkabog' tumani faoliyati misolida ko'rishimiz mumkin. Mahalliy byudjet daromadlarining asosiy qismini soliqlar tashkil etadi. Yakkabog' tumanining byudjet daromadlari va xarajatlarini tashkil qilish jarayonida, bu tumanning ya'ni Yakkabog' tumanining imkoniyatlari keng ekanligi ma'lum bo'ldi. Byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni 2010-2011 yillardagi byudjet daromadlarini o'rganamiz. (65-bet) Umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlarning rejaga ko'ra to'liq bajarilganini ko'rishimiz mumkin. qo'shilgan qiymat soliqi 2010-yilga nisbatan 2011-yilda 223,6 foizga ya'ni, 3578572,0 ming so'mga ortiqi bilan bajarilgan va qo'shilgan qiymat soliqi o'sganligi, yuridik shaxslardan olinadigan foyda soliqi, dividend va foizlar ko'rinishidagi olingan daromadlariga solinadigan soliq 2010-yilganisbatan 2011-yilda pasayganligini ya'ni, 78,6 foizga bajarilganligi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq 2010-yilga nisbatan 2011-yilda ortganligi foizga nisbatan 122,8 foizga bajarilganligini ko'rishimiz mumkin. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq 2011-yilda 146,3 foizga ortiqi bilan bajarilgan, mahalliy soliqlar va yig'imlar 2011-yilda 127,2 foizga bajarilgan. Davlat bojlari 2011-yilda 150,8 foizga ortiqi bilan bajarilgan, yig'imlar va turli soliqsiz daromadlar esa 2010-yilga nisbatan 2011-yilda 122,8 foizga , ya'ni 22245,0 ming so'mga ortiqi bilan bajarilgan. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 2011-yilda 201,7 foizga bajarilgan, davlat mulkini sotishdan tushgan tushum 2010-yilda 3466,0 ming so'mga, 2011-yilda 5954,0 ming so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin, yagona soliq to'lovlaridan davlat byudjetiga ajratmalar 2011-yilda 119,5 foizga oshirib bajarilgan, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliqi 2010-yilga nisbatan 2011-yilda pasayganligi , ya'ni 62,2 foizga bajarilgan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar daromadiga solinadigan soliq 2011-yilda 142,4 foizga ortiqi bilan bajarilgan. Aktsiz soliqlar esa 2010-yilga nisbatan 2011-yilda 201240,0 ming so'mga , ya'ni 103,4 foizga oshgan, tumanning boshqa daromad va tushumlar 2010-yilga nisbatan 2011-yilda oshganligini ko'rishimiz mumkin. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan er soliqi 2010-yilga nisbatan 2011-yilda 110,6 foizga , ya'ni 136235,0 ming so'mga bajarilgan, tuman daromadlarining jami 2010-yilda 19787616,0 ming so'mga , 2011-yilda esa 2907896,0 ming so'mga, ya'ni 2010-yilga nisbatan 2011-yilda 147,0 foizga , ya'ni 9291344,0 ming so'mga ortiqi bilan bajarilgan. 2011-yilga nisbatan 2012-yilni o'rganadigan bo'lsak, Yakkabog' tumani daromadlari ortganligini soliqlar, soliqsiz daromadlar va yig'imlar, tushumlarning davlat daromadiga olinishi quyidagilardan bilishimiz mumkin. qo'shilgan qiymat soliqi 2011-yilga nisbatan 2012-yilda pasaygan, ya'ni 96,5 foizga 237726,0 ming so'mga kamayganligini ko'rish mumkin. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda soliqi dividend va foizlar ko'rinishida olgan

daromadlariga solinadigan soliq 2011-yilga nisbatan 2012-yilda 278,3 foizga ortiqi bilan bajarilganligini ko'rishimiz mumkin. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlar esa 2011-yilga nisbatan 2012-yilda buning ham ortganligini ko'rishimiz mumkin, bu foizga nisbatan 202,2 foizga bajarilgan, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq 2011-yilga nisbatan 2012-yilda o'sganligi foizga nisbatan 260,7 foizga bajarilganligini ko'rishimiz mumkin. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq 2011-yilga nisbatan 2012-yilda 54,9 foizga pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Mahalliy soliqlar va yig'imlar 2012-yilda 95,0 foizga pasaytirib bajarilgan. Davlat bojlari 2012-yilda 140,5 foizga , ya'ni 39973,0 ming so'mga ortiqi bilan bajarilgan, yig'imlar va turli soliqsiz daromadlar 2011-yilga nisbatan 2012-yilda 163,4 foizga bajarilgan, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 2012-yilda 163,4 foizga ortiqi bilan bajarilgan, davlat mulkini sotishdan tushgan tushum 2011-yilda 5954,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 13298,0 ming so'mni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin., yagona soliq to'lovidan davlat byudjetiga ajratmalar 2012-yilda 134,7 foizga bajarilgan, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliqi 2011-yilga nisbatan 2012-yilda 135,5 foizga

bajarilgan. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar daromadiga solinadigan soliq 2012-yilda 205,1 foizga ortiqi bilan bajarilgan, aktsiz soliqlar 2012-yilda 91,7 foizni, ya'ni 513330,0 ming so'mga kam bajarilgan, tumanning boshqa daromad va tushumlari 2011-yilga nisbatan 2012-yilda ortganligini ko'rishimiz mumkin. Yuridik va jismoniy shaxslardan er soliqi 2011-yilga nisbatan 2012-yilda 95,1foizni , ya'ni 69534,0 ming so'mga kam bajarilgan. Yakkabog' tumani daromadlari jami 2011-yilda 29078960,0 ming so'mda belgilangan va 2011-yilda 29485050,0 ming so'mga bajarilgan. 2012-yilda esa 35959397,0 ming so'm belgilangan va 2012-yilda 36143944,0 ming so'mga bajarilgan, ya'ni 2011-yilga nisbatan 2012-yilda 123,7 foizga bajarilgan. Biz Yakkabog' tumani byudjet daromadlarini 2010-yilga belgilangan rejaga nisbatan bajarilganligi, 2011-yilda ham rejaga nisbatan bajarilganligi , 2012-yilda ham rejaga ko'ra bajarilganligini ko'rshimiz mumkin . Ayrim soliq turlarini bajarilmaganligini oladigan bo'lsak, past ko'rsatkichga ega ekanligini bilishimiz mumkin, lekin tuman daromadlarini inobatga oladigan bo'lsak, ayrim soliq turlari bajarilmaganligi ma'lum bo'lsa ham belgilangan rejaga nisbatan 2010-2011-2012 yillarda doim ortiqi bilan bajarib kelingan. Bu esa tumanning byudjet daromadlari yuqoriligi bu o'z navbatida shu tumanda faoliyat yuritayotgan yuridik va jismoniy shaxslar faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Davlat byudjet siyosatida davlat daromadlarini ko'paytirish bevosita olib borilayotgan soliq islohotini samarasi ekanligini aytib o'tish mumkin. Tumanlarda qancha soliq to'lovchilar ko'paysa mahalliy byudjet daromadlarini (ko'paytirish) ortishiga hamda davlat byudjetini daromadlari bilan taminlashga va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohasi va moliyaviy Barqarorligini taminlashga xizmat qiladi. Soliqlar mahalliy byudjetlarni to'ldirishning asosiy manbai ekanligi hammamizga ravshan. . Soliqlar xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini hamrab olishi bilan birga har bir tarmoqqa, korxonalarga alohida yondashuvlarni ta'minlashi lozim. Bundan tashqari soliqlar daromadlarning bir qismini hamrab oladi, ular xalq xo'jaligini alohida zarur

bo'lgan mahsulot va tovarlarni ishlab chiqarishga intiluvchi korxonalar hamda fuqarolarni har jihatdan rag'batlantirishi kerak. Mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini yanada mustahkamlash, byudjetlararo munosabatlarni isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Respublikamizda mahalliy soliqlar va soliqsiz tushumlardan shakllangan daromadlari mahalliy byudjetlar xarajatlirining juda kam qismini qoplanganligi tufayli mahalliy byudjetlar daromadlarining asosiy qismi byudjetlararo tartibga solish orqali shakllantiriladi. Tartibga solinadigan daromadlar bu yuqoribyudjetlardan quyi byudjetga ularning daromad va xarajatlarini boshqarib turish maqsadida beriladigan pul mablag'lari majmuasidir. Tartibga solinadigan daromadlarga ushbu soliqlardan o'tkazmalar, dotatsiyalar, subvensiyalar, yuqoribyudjetdan o'zaro hisob-kitob asosida olingan mablag'lar.

Shunday qilib tartibga solinadigan daromadlar bu yuqori hukumat organlari tomonidan quyi hukumat organlariga qonunchilik aktlari (qonunlar, qarorlar, nizomlar, buyruqlar) asosida beriladigan daromadlardir. Mablag'larning berilishi rejalashtirilgan yilning boshida, boshqarish rejasi va rejalashtirilgan yilning byudjet to'g'risidagi qonunchilik aktiga asosan yoki yuqorijiro etuvchi va tartibga soluvchi organlarning ko'rsatmasiga binoan byudjetni bajarish jarayonida amalga oshiriladi. Kitob tumanining daromadlaridan kelib chiqqan holda tumanni ijtimoiy iqtisodiy qo'llab-quvvatlash mahalliy vakillik organlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Davlat o'z vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlar qilishi zarur. Bu xarajatlar, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun turli tarmoqlarga investitsiya qilish uchun mo'ljallangan, aholining turmush darajasini ko'tarish uchun rejalashtirilgan, ijtimoiy vazifalarni bajarishga ajratilgan xarajatlardan iborat bo'ladi. Ushbu umumdavlat xarajatlari byudjet orqali moliyalashtirilishi barchamizga ayon. Byudjet tizimining barcha xarajatlari turli byudjetlar o'rtasida taqsimlanadi, bu esa u yoki bu xarajatni muayyan byudjetga kiritilishini anglatadi. Bu birinchidan, moliyalashtirilayotgan muassasaning respublika va mahalliy organlarga qarashli bo'lishi, ikkinchidan, moliyalashtiriladigan tadbirning ahamiyatidan kelib chiqadi. Mahalliy byudjet mablag'larining egasi sifatida amaldagi me'yoriy hujjatlarga asoslanib umumiy hajmi byudjet qonunchiligida belgilangan miqdorda pul mablag'larini ajratadi. Byudjet xarajatlarida davlat xokimiyati, davlat boshqaruv organlari moliya-kredit idoralari tizimi orqali ta'siri tegishli mablag'larga tegishli ehtiyoj sezilgan paytdan boshlab ularni sarf-xarjat qilgunga qadar bo'lgan butun davr mobaynida yuz berib turadi. Mahalliy byudjet ob'ektiv iqtisodiy kategoriya bo'lib, u ikki tomonlama xususiyatga ega: birinchidan, u iqtisodiy tarmoqlarni moliyaviy ta'minlashga qaratilgan xarajatlardan iborat, ikkinchidan, u xarajatlar korxonalarning va jismoniy shaxslarning daromadidan tashkil topadi. Xarajatlarni byudjet mablag'lari hisobiga qoplash sohasidagi huquqiy munosabatning birinchi qatnashchisi bu-davlat manfaatlarini ifoda etuvchi va davlat nomidan mablag'larini beruvchi moliya tashkilotidir. Byudjet xarajatlarining ayrim turlarini belgilash choraklar bo'yicha taqsimlash, kredit ochish, kreditni chiqarib olish byudjet mablag'laridan to'g'ri va samarali foydalanish ustidan nazorat olib borish moliya tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini

vujudga keltirishdan vazifani ijobiy hal etilishi aynan ijtimoiy madaniy sohalar taraqqiyotiga bog'liqdir.

Shuni nazarda tutgan holda hozirgi kunda mamlakatimizda ijtimoiy soha xarajatlari asosan mahalliy byudjetdan moliyaviy ta'minlanmoqda. Ijtimoiy madaniy tadbirlarni o'tkazish va byudjet tashkilotlarining alohida xarajatlarining belgilangan me'yorlarga asosan moliyalashtirish ijtimoiy madaniy tadbir xarajatlari avvalo loyiha parametrlariga kiritiladi. Aholini ijtimoiy himoyalash tadbirlarining loyiha parametrlarida kam ta'minlangan bolali oilalarga to'lanadigan nafahalar va aholi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar uchun farqni byudjetdan qoplash bilan ifodalanadi. Davlatni ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan xarajatlari faqat ijtimoiy emas, balki iqtisodiy ahamiyatga ham ega bo'ladi. Jamiyatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yorda beradi, chunki davlat amalga oshirayotgan aholining hamma qatlamlari manfaatlariga dahldor bo'lgan iqtisodiy faoliyat natijalari ijtimoiy soha orqali ro'yobga chiqadi.

Davlatning ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan xarajatlar jamiyatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi. Shuning uchun moliyaviy ahvol qanchalik murakkab bo'lmasin, ta'lim, sog'liqni saqlash, fan va madaniyatni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun mablag'larni qidirib topilishi shart bo'lib hisoblanadi. Yakkabog' tumani daromadlari qismini o'rganib bo'ldik, endi xarajatlarni o'rganib chihamiz.

Iqtisodiyot uchun xarajatlar Yakkabog' tumanida 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 160460,0 ming sumga, ya'ni 219,5 foizga o'sgan, umumiy ta'lim xarajatlari 2010-yilga nisbatan 2011-yilda 147,9 foizga, ya'ni 4693041,0 ming so'mga o'sganligini ko'rishimiz mumkin. O'rta-maxsus, oliy ta'lim va kadrlar malakasini oshirish xarajatlari 105, 0 foizga o'sgan, madaniyat va ommaviy axborot xarajatlari 2010-yilga nisbatan 2011-yilda 11418,0 ming so'mga, ya'ni 138,3 foizga oshgan, sog'liqni saqlash xarajatlari 2011-yilda 1820205,0 ming so'mga, ya'ni 196,6 foizga o'sgan, ijtimoiy ta'minot xarajatlari 2010-yilga nisbatan 2011-yilda 156,7 foizga oshgan. Davlat boshqaruv organlari sarf-xarajatlari esa 2011-yilda 140,3 foizga o'sgan, o'zini o'zi boshqarish organlari sarf-xarajatlari 2011-yilda 234235,0 ming so'mga, ya'ni 205,4 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Zahira jamg'armalari esa 2010-yilga nisbatan 2011-yilda 14000,0 ming so'm, ya'ni 133,3 foizga oshgan, turmush farovonligi bilan bog'liq xarajatlar 2011-yilda 176,0 foizga oshgan. Yakkabog' tumani xarajatlarining jami 2010 - yilda 16008595,0 ming so'm aniqlanib 2010-yilda 16026782,0 ming so'mga moliyalashtirilgan, 2011-yilda 25854031,0 ming so'm aniqlanib, 2011-yilda 25953394,0 ming so'mga moliyalashtirilgan. Xarajatlarning jami 2010-yilga nisbatan 2011-yilda 9845436,0 ming so'm, ya'ni 161,5 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Boshqa byudjetlarga o'tkazilgan mablag'lar (dotatsiya, subvensiyalar) 2010-yilda 3779021,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilda 3224929,0 ming so'mni tashkil etgan, 2010-yilga nisbatan 2011-yilda 554092,0 ming so'm, ya'ni 85,3 foizga kamayganligini ko'rish mumkin. Xarajatlarning hammasi 2010-yilda 19787616,0 ming so'm aniqlanib 2010-yilda 16026782,0 ming so'm moliyalashtirilgan, 2011-yilda 29078960,0 ming so'm aniqlanib, 25953394,0 ming

so'm moliyalashtirilgan. 2010-yilga nisbatan 2011-yilda 9291344,0 ming so'm , ya'ni 146,96 foizga o'rganini ko'rish mumkin. 2010-2011-yillarda harajatlarni qoplash tuman byudjetining ortishi bilan, tuman harajatlarini qoplashga va boshqa byudjetlarga mablag'larni moliyalashtirish amalga oshirilib kelinmoqda. 2011-yilga nisbatan 2012-yilni o'rganamiz.

Yakkabog' tumani davlat xarajatlarini quyidagilardan bilishimiz mumkin. Iqtisodiyot uchun xarajatlar 2012-yilda 251159,0 ming so'mga 185,2 foizga o'sgan, umumta'lim xarajatlari 2011-yilga nisbatan 2012-yilda 132,3 foizga o'sgan, o'rta maxsus, madaniyat va ommaviy axborot vositalari xarajatlari 2011-yilga nisbatan 2012-yilda 14524,0 ming so'mni , ya'ni 135,2 foizga oshgan, sog'liqni saqlash xarajatlari 2012-yilda 1114562,0 ming so'mga , ya'ni 130,1 foizga oshgan, ijtimoiy ta'minot xarajatlari 2011-yilga nisbatan 2012-yilda 134,4 foizga oshgan. Davlat boshqaruv organlari sarf-xarajatlari 2012-yilda 133,2 foizga oshganligini, o'z-o'zini boshqarish organlari sarf-xarajatlari 2012-yilda 110656,0 ming so'mga 124,2 foizga oshganligini ko'rish mumkin. Zahira jamg'armalari esa 2011-yilga nisbatan 2012-yilda 98,1 foizga pasaygan, boshqa sarf-xarajatlari 2011-yilga nisbatan 2012-yilda 1120,0 ming so'mga , ya'ni 120,0 foizga oshgan, turmush farovonligi bilan bog'liq xarajatlar 2012-yilda 139,3 foizga oshganligini ko'rish mumkin.

Yakkabog' tumanining xarajatlarining jami 2011-yilda 25854031,0 ming so'm aniqlanib, 2011-yilda 25953394,0 ming so'm moliyalashtirilgan, 2012-yilda 34702214,0 ming so'm aniqlanib 2012-yilda bu ko'rsatkich 34710045,0 ming so'mga moliyalashtirilgan , xarajatlarning jami 2012-yilda 2011-yilga nisbatan 2012-yilda 8848183,0 ming so'm, ya'ni 134,2 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Boshqa byudjetlarga o'tkaziladigan mablag'lar (ya'ni dotatsiya, subventsiyalar) 2011-yilda 3324929,0 ming so'mni tashkil etgan, 2011-yilga nisbatan 2012-yilda 1967746,0 ming so'mga , ya'ni 39,0 foizga oshgan. Xarajatlarning hammasi 2011-yilda 29078960,0 ming so'm aniqlanib, 2011-yilda 25953394,0 ming moliyalashtirilgan, 2012-yilda 35959397,0 ming so'm aniqlanib 2012-yilda 3471004, 5 ming so'm

moliyalashtirilgan. 2011 yilga nisbatan 2012-yilda 6880437,0 ming so'mga , ya'ni 123,7 foizga oshganligi ma'lum.

Yakkabog' tumani mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlari tahlilidan shuni ko'rishimiz mumkinki, Yakkabog' tumani mahalliy byudjetining daromadlari 2010-yilda daromadlar rejasi 19787616,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, haqiqatda esa 19870050,0 ming so'mga bajarilgan, rejaning bajarilishi 100,4 foizni tashkil etgan, xarajatlar 2010-yilda 19787616,0 ming so'mga rejalashtirilib, haqiqatda 16026782,0 ming so'mga moliyalashtirilgan, rejaning bajarilishi 81,0 foizni tashkil etgan. 2011-yilda daromadlar esa 29078960,0 ming so'mga rejalashtirilib, haqiqatda 29485050,0 ming so'mga bajarilgan, rejaning belgilanganga nisbatan bajarilishi 101,4 foizni tashkil etgan. Xarajatlar 2011-yilda 29078960,0 ming so'mga rejalashtirilib, haqiqatda 25953394,0 ming so'mga moliyalashtirilgan, rejaning bajarilishi 89,3 foizni tashkil etgan, 2012-yilda daromadlar 35959397,0 ming so'mga rejalashtirilib, haqiqatda 36143944,0 ming so'mga bajarilgan, rejaning belgilanganga nisbatan bajarilishi 100,5 foizni tashkil

etgan. Xarajatlar 2012-yilda 35959397,0 ming so'mga rejalashtirilib, haqiqatda 34710045,0 ming so'mga moliyalashtirilgan, rejaning bajarilishi 96,5 foizni tashkil etgan.

Tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biz tahlil qilish jarayonida shu narsaga amin bo'ldikki, kelgusida tuman xarajatlarini ortib borishida daromadlarning o'rni muhim hisoblanadi. Kelgusida kichik korxonalarning rivojlanishi jismoniy shaxslarning daromadlarining ortib borishi, kelgusida qilinayotgan xarajatlarning salmoqli bo'lishiga olib keladi.

III. bob. Davlat byudjeti daromadlari tizimini takomillashtirish yo'llari.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi erkin bozor iqtisodiyotiga oid tashqi siyosat o'tkazuvchi kuchli huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurishdan iboratdir. Ayni paytda ongimizga ishbilarmon, tadbirkor, pul, milliy valyuta, bank kredit, byudjet, soliq kabi tushunchalar borgan sari ko'proq singib borayapti. Bu tushunchalarning barchasi moliyaviy tizimi bilan bevosita bog'liq. Moliya tizimi-bu yalpi ijtimoiy mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida paydo bo'ladigan va davlat tomonidan umumdavlat (mamlakat) vazifalarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan pul mablag'larining majmuasidir.

U asosan uch bo'g'indan iborat.

- 1) Davlat byudjeti.
- 2) Mahalliy byudjet
- 3) Korxona fermalar byudjeti.

Davlat byudjetining umumiy moliya munosabatlari tarkibidagi o'rni va ahamiyati. Davlat byudjeti deganda, umumjamiyat miqyosida markazlashgan va davlat ishtirokida hosil bo'luvchi va sarflanuvchi moliyaviy resurslar tushuniladi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy vositalar yordamida iqtisodiyotni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi vazifalarni hal qilishdir. Davlat o'z vazifalarini bajarish uchun xarajatlar qilishi zarur. Davlat xarajatlari moliyaviy resurslarni davlat faoliyati bilan bog'liq ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanishini bildiradi. Umumdavlat xarajatlari aniq maqsadlarga qaratiladi va rejalashtiriladi. Bu xarajatlar byudjet tomonidan moliyalashtiriladi. Byudjet xarajatlari umumdavlat moliya fondini tashkil etgan tushumlari taqsimlanib ma'lum maqsad yo'lida ishlatilishidir. Byudjet xarajatlari ishlatilishiga ko'ra to'rt xil bo'ladi:

A) ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun ketadigan sarflar, xususan investitsiya sarflari;

B) ijtimoiy-madaniy , ya'ni davlatga qarashli ijtimoiy madaniy soha xizmatlarini,

chunonchi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya, sport, maorif va

madaniyatni pul bilan ta'minlash turli sarflari.

V) Davlat boshqaruv xarajatlari yoki har xil toifadagi davlat idoralari xarajatlari.

G) Mamlakatni mudofaa qilish yoki harbiy xarajatlar (byudjet daromadlari uning xarajatlarini qoplashi lozim.) hozircha noishlab chiqarish sohalarining rivojlanishida asosiy manba davlat byudjeti hisoblanar edi. Mamlakatimiz milliy daromadini qayta taqsimlash natijasida uning ko'proq qismi moliyaviy resurs sifatida noishlab chiqarish sohalariga yo'naltirildi. Ammo bozor iqtisodiyotiga o'tish davri bu sohalarini moliyalashtirish bo'yicha ham yangi yo'nalishlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida talabalarni shartnoma asosida qabul qilish, boshqa sohalarda ham tijorat faoliyatini rivojlantirish va hokazolar shular jumlasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar, shahar, tumanlar byudjetlarini

birlashtiradi. Respublika davlat byudjeti tomonidan davlat ahamiyatiga molik xo'jalik va madaniy ko'rinishlar, tashqi savdoni rivojlantirish, davlat ahamiyatiga molik korxona va tashkilotlar moliyalashtiriladi.

Davlat byudjetining asosiy bo'g'ini mahalliy byudjetlar hisoblanadi. Mahalliy byudjet tomonidan deyarli barcha ishlab chiqarish sohalari moliyalashtiriladi. Mahalliy byudjet tomonidan moliyalashtiriladigan korxonalarning daromad va xarajatlarini tasdiqlash va o'zgartirish huquqi shu hududlardagi mahalliy hokimiyatlarga berilgan. O'z daromadiga ega bo'lmagan va byudjet tomonidan moliyalashtiriladigan korxona va tashkilotlar byudjet tashkilotlari deb yuritiladi. Ularning xarajatlari maxsus smetalar asosida aniqlanadi. Bundan tashqari, xo'jalik hisobida ishlaydigan, lekin daromadlari o'z xarajatlirini qoplamaydigan bir qator korxonalar, ya'ni madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sport, kommunal xo'jaliklarning bir qismi davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

2) Iqtisodiyotning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan munosabati.

Iqtisodiyotda barcha kategoriyalarni bir-biridan alohida holda ishlatish mumkin emas, chunki ularning hammasi bir-biri bilan bog'liq holda amal qiladi. Iqtisodiy kategoriya sifatida byudjet ham shular jumlasiga kiradi. quyida byudjetni ba'zi bir iqtisodiy kategoriyalar bilan munosabatini ko'rib o'tamiz:

- Soliqlar: soliqlar davlat va mahalliy byudjetlar daromadining asosiy moliyaviy manbai hisoblanadi. Soliqlar eng avvalo davlatning ijtimoiy zaruriy vazifalarini moliyaviy mablag'larga ta'minlashning zarurligidan kelib chiqadi. Bu vazifalarni amalga oshirish nihoyatda ko'p moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu resurslarni faqat soliq va to'lovlar orqali amalga oshirish mumkin. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda soliqlarning ijtimoiy iqtisodiy ahamiyati juda katta, ular davlat byudjetining 90 foizini, mahalliy byudjet daromadlarining 70 foizini beradi.

- Moliya: moliya kategoriya sifatida pul fondlarini tashkil etish va ularni taqsimlash va sarflash ustidan nazorat olib borish funksiyalarini bajarib, byudjetni aynan takrorlaydi, ya'ni ular ostida deyarli tafovut bo'lmaydi. Davlat byudjetini tayyorlash va ijrosini moliya vazirligi amalga oshiradi.

- Kredit: hukumat davlat byudjetini taqchillik yuzaga kelganda uni qoplash uchun kreditdan foydalaniladi. Taqchillikni qoplash uchun chet mamlakatlardan Markaziy bank kreditlaridan davlat obligatsiyalarini sotishdan kelgan mablag'larni ishlatadi.

3) Davlat byudjetini taqsimlash va nazorat qilish funksiyalari:

Byudjet tomonidan moliyalashtiriladigan maqsadli choraklarga taqsimlangan xarajatlarning asosiy hujjati xarajatlar smetasidir. Ixtiyoriga byudjet tomonidan pul mablag'lari berilgan korxona va tashkilotlar kredit taqsimlovchilar deyiladi. Agar byudjet tomonidan moliyalashtiriladigan korxonalar va boshqa tumanlarga ega bo'lsalar bu tumanlar maxsus mablag'lar smetasida ko'rsatiladi va alohida xarajat qilinadi. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish zarur bo'lgan xarajatlar har bir tarmoqning o'z oldiga qo'ygan vazifalariga qarab aniqlanadi. Har qanday mamlakatning iqtisodiyoti ichki va tashqi moliyaviy manbalardan samarali foydalanish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Davlat boshqaruvchilik rolini amalga oshirish, ijtimoiy sohalarni rag'batlantirishi sog'liqni saqlash, jismoniy

tarbiya va sport kabi sohalarni rivojlantirishi katta miqdorda moliyaviy resurslarni talab etadi. Bu mablag'lar esa ichki manbalar hisobiga to'planadi. Hozirgi kunda mahalliy byudjetlarni tartibga solishda qo'llanilayotgan uslublarda kamchiliklar ham yo'q emas. Ularning asosiylaridan biri mahalliy byudjetlarni tartibga

soluvchi daromadlarni shakllantirishda sub'ektiv omillarning mavjudligi, ya'ni bu tartibga soluvchi soliqlarning tarkibini tanlash va ulardan ajratmalarning me'yoriy miqdorlarini belgilashda namoyon bo'lmoqda, chunki, bu me'yoriy hujjatlar qat'iy uzoq vaqt bitta chegarada belgilanmaydi. Bu esa mahalliy byudjetlar Barqarorligiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Mahalliy byudjetlarning daromad bazalarini mustahkamlashda ular ixtiyoriga berilgan mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha tadbirlar muhim o'rin tutadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mahalliy byudjetlar mahalliy soliqlar va yig'imlarni tashkil etish va boshqarishda mustaqil bo'lsada, Moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tegishli me'yorlar doirasida faoliyat ko'rsatadilar. Mahalliy byudjetlar amaliyotidagi muhim xususiyatlar byudjet tizimi to'g'risidagi qonunda belgilanib mahalliy byudjetlar taqchilligiga yo'l qo'ymaslikdir.

Davlat siyosatida mahalliy byudjetlar daromadlar va xarajatlarning balansiligi respublika byudjeti subsidiyalari orqali kafolatlanmoqda.

Hududiy iqtisodiyot muammolari mahalliy byudjetlar oldiga yangi muammolarni qo'ymoqda:

1) Byudjet mablag'larining hududlar bo'yicha taqsimotida xarajatlar ko'lamida hamda mablag'larning cheklanganligi oqibatida byudjet resurslariga bo'lgan ehtiyoj qondirilmayotganligi;

2) Byudjet tizimida mahalliy byudjetlarning mustaqilligi va uning moliyaviy iqtisodiy zaminlari haqida topshiruvlarning mavjudligi;

3) Rivojlangan mamlakatlarning byudjet amaliyotida keng qo'llanilayotgan byudjet resurslarini, byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash jarayonida tegishli asoslar va mezonlarga amal qilish muammosi mahalliy hokimiyat organlarining soliq yig'imlarini ko'paytirishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish dotatsiya va boshqa moliyaviy yordam turlarini qisqartirish maqsadida lejjadan ortiqcha tushgan soliq so'mmalarini taqsimlash mexanizmini qaytadan ko'rib chiqish takomillashtirish zarur.

Bunda rejadan ortiqcha soliq tushumlarini mahalliy byudjetlarda qondirish meyorlarini ishlab chiqarish kerak bo'ladi. hozirgi kunda rejadan ortiqcha tushumlar respublika va mahalliy byudjetlarning joriy ehtiyojlaridan kelib chiqib tizimlanmagan usulda taqsimlanmoqda. Yagona me'yorlar joriy etish dotatsiyalarning kamayishi keyinchalik soliq tushumlarining oshishi bilan ham qoplanishi mumkin. hozirgi paytda mahalliy byudjetlar daromatlarining xarajatlaridan oshib ketgan so'mmasini respublika byudjetiga olib qo'yish mexanizmida ham rag'batlantirish vositasi sifatida foydalanishi mumkin. Bunda ularni respublika byudjetiga to'liq emas balki 60:50 nisbatiga olib qo'yish mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Byudjet resurslarini taqsimlashda jahon amaliyotidagi quyidagi mezonlarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- mahalliy byudjetlar resurslarining aholi jon boshiga nisbatan taqsimlanishi.

- iqtisodiy salohiyatdan foydalanishga qarab byudjet resurslarini taqsimlash. Byudjet-soliq siyosatining mutanosibligini ta'minlash quyidagi muammolarni hal etish bilan bog'liq:

- 1)Byudjetlararo mutanosiblikni tashkil etishning kontsentuval asoslarini takomillashtirish;

- 2)maxalliy byudjetning daromad xarajatlarini boshqarishni erkilantirish;

- 3)soliq yukini turli sohalar o'rtasida taqsimlash me'yorlarini ishlab chiqarish

- 4)maxalliy byudjet daromadlari tarkibida soliqsiz tovarlar salmoqining o'sishini ta'minlash;

- 5)hududiy muammolarni hal etishda davlat va xududlar manfaatlarining muvofiqligini ta'minlovchi byudjet mexanizmini shakillantirish. Iqtisodiy mustaqillik haqida mahalliy byudjetlar bo'g'ini daromad bazasining o'sishi yoki byudjet o'lchamlarining oldingi yillardagi nisbati deb xulosa chiqarib bo'lmaydi. Buning uchun ko'rsatkichlarning o'sish dinamikasi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan byudjet resurslari miqdorining ortishi hamda investitsiyalarning o'zlashtirilishi, real investitsiya hajmining ortishi va shunga bog'liq holda iqtisodiy salohiyatdan foydalanish sur'atlarida ham sezilarli o'sish kuzatilishi lozim. Mahalliy byudjetlarga respublika byudjetlaridan ajratmalar iqtisodiy mustaqillik darajasiga u qadar ta'sir ko'rsatmaydi. Uning qulashi va ta'sir ko'rsatishi hududlar yoki reptsenent hududlar imkoniyatiga ham bog'liq.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda mahalliy hokimiyat organlarining hududlarni iqtisodiy ijtimoiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha vakolatlari yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa mahalliy byudjet xarajatlarining , davlat byudjeti xarajatlarining davlat byudjeti xarajatlari tarkibidagi ulushining ortib borishiga ta'sirini ko'rsatmoqda. Masalan, davlat byudjeti xarajatlarining mahalliy byudjetlardagi ulushi 1994-yilda 41,3 foizni , 2000-yilda 52,2 foizni, 2003-yilda 53,0 foizni , 2006-yilda 53,8 foizni , 2007-yilda 54,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2012-yilda 59,0 foizni tashkil etadi. Mahalliy byudjet xarajatlarining ortib borishi ob'ektiv ravishda ularning daromad bazasini mustahkamlashni taqozo etadi. Mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka asosan mahalliy byudjet daromadlari biriktirilgan daromadlardan va tartibga solib turuvchi daromadlardan tashkil topadi. Agarda mahalliy byudjet xarajatlarining ikkala daromad ham qoplamasa, respublika byudjetidan dotatsiya va subvensiya ajratiladi.

Mahalliy byudjetlar uchun umumdavlat soliqlardan tushumlar ajratmasi bo'yicha normativlar har yilda qabul qilinadigan , davlat byudjeti to'g'risidagi qonunda ko'zda tutilgan. Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjet daromadlari tarkibida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar asosiy ulushni egallaydi. 2010-yilda viloyat mahalliy byudjetining qo'shilgan qiymat soliqi 39,0 foizni, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqi 16,6 foizni, yuridik shaxslardan aksiz soliqi 26,0 foizni tashkil etgan. Mahalliy soliqlarning egallagan ulushi 2,3 foizni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyati mahalliy byudjet daromadlari tarkibida bilvosita soliqlarning ulushi muntazam ravishda asosiy ulushni egallab turibdi. 2010-yilda viloyat mahalliy byudjetining umumiy daromadlar tarkibida bilvosita soliqlar 45,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2011-yilda 41,6 foizni tashkil etgan.

Birinchi muammo bo'lib, mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning yiqiluvchanlik darajasining pastligi va soliq to'lovchilarning to'liq davlat ro'yxatiga olinmaganligi hisoblanadi. Buning natijasida respublikamiz byudjet tizimida dotatsion mahalliy byudjetlarning salmoqi yuqoridarajada saqlanib turibdi. Qashqadaryo viloyatida 2 ta dotatsion mahalliy byudjet , ya'ni Kitob va Dehqonobod tumanlari dotatsion byudjet hisoblanadi.

Mahalliy moliyaning tarkibiy qismlari hisoblangan mahalliy byudjet va korxonalar moliyani shakllantirishdagi ikkinchi muammo bo'lib, boqimanda debitor - kreditor qarzorlikni yildan-yilga oshib ketayotganligini va mavjud resurs salohiyatlaridan to'liq foydalanganligi hisoblanadi.

Mahalliy moliyani shakllantirishdagi uchinchi muammo bo'lib, mamlakatimiz tumanlarida mahalliy xomashyoni qayta ishlaydigan korxonalarning juda kamligi va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarda yangi texnologiyalardan etarli darajada foydalanmaslik hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlarning daromadlarini shakllantirishdagi keyingi muammo bo'lib, ularga umumdavlat soliqlari bo'yicha tushumlardan ajratmalar normativini belgilash va mahalliy byudjetlarga dotatsiyalar ajratish muammosi hisoblanadi.

Mahalliy moliyaning tarkibiy qismi bo'lib, hududlarni iqtisodiy ijtimoiy rivojlantirishdan korxonalarning mablag'laridan oqilona foydalanish muammosi hisoblanadi. Bitiruv malakaviy ishida yuzaga kelgan yuqoridagi muammolarni hal etish uchun quyidagi xulosa va takliflarni shakllantirdik:

1. Qashqadaryo viloyatida boqimanda qarzdorlikni qisqartirish hamda soliq to'lovlarini rag'batlantiruvchi funktsiyasini oshirish va viloyat iqtisodiyotini barqaror o'sishini ta'minlaydigan to'g'ridan-to'g'ri xorij investitsiyalarini jalb qilish orqali faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan yangilash natijasida mahsulot hajmini hamda sifatini oshirish bilan birgalikda mahalliy byudjet xarajatlarini optimallashtirish maqsadida chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

2. Viloyat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida yangi kichik korxonalar tashkil etish va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish orqali aholinining ish bilan bandligini oshirish lozim.

3. Viloyatda to'liq quvvat bilan ishlamayotgan korxonalarda moliyaviy sog'lomlashtirish va ularda eksportga yo'naltirilgan sifatli hamda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish lozim.

4. Mahalliy byudjet daromadlarini hozirgi vaqtdagi asosiy ko'rsatkich sifatida davlat mulkini xususiylashtirishdan tushadigan daromadlar ekanligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Viloyatda davlat ulushi mavjud aktsiyadorlik jamiyatlarining xo'jalik moliya faoliyatini tashkil etib ulardan to'liq quvvat bilan ishlamayotgan korxonalarni yangi sarmoyadorlarga sotish va bu korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish lozim. Davlat mulkini sotishdan kelgan tushum esa mahalliy byudjet daromadlarini oshirishga imkoniyat yaratadi.

5. Mahalliy byudjet daromadlarining shakllantirilishida umumdavlat soliqlaridagi ajratmalar normativini amaldagi tartibini saqlab qolish lozim. Viloyatlarda umumdavlat soliqlaridan tushumlarining ko'paytirishdagi manfaatdorligini oshirish maqsadida ushbu soliqlar bo'yicha o'rnatilgan rejadan ortiq summasining 50 foizini ularning ixtiyorida qoldirish lozim. Ushbu holat mahalliy hokimiyatlarda umumdavlat soliqlarini o'z muddatida kelib tushishiga bo'lgan manfaatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.: "O'zbekiston" 2002.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi 25.12.2007 yil qabul qilingan. T.: "Adolat" 2008.
3. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 27-iyundagi "qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonuni. T.: "Xalq so'zi" 2008.
4. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni. T.: "Adolat" 2002.
5. . O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14-dekabrda "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuni. T.: "O'zbekiston" 2003.
6. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonuni. T.: "O'zbekiston" 2002.
7. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25-aprelda "Bank va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni. T.: "O'zbekiston" 2003.
8. O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonuni. T.: "O'zbekiston" 2003.
9. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. T.: 2002.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 30-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida soliqlarning rag'batlantiruvchi ahamiyatini kuchaytirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmoni. T.: "Adolat" 2000
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 26-iyunda "Davlat byudjetiga soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berishni tartibga solish to'g'risida"gi Farmoni. T.: "Adolat" 2000
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 23-dekabrda "Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'larini shakllantirish va sarflash tartibi to'g'risida"gi Farmoni. T.: "Adolat" 2004
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 10-yanvarda "O'zbekiston Respublikasining davlat xazina majburiyatlari to'g'risida"gi qarori. T.: "O'zbekiston " 2006 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 27-sentyabrda "qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.: "O'zbekiston " 2007
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 27-dekabrda "Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining 2006 yilgi parametrlari to'g'risida"gi R.R-244 sonli qarori
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18-dekabrda "Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining 2007 yilgi parametrlari to'g'risida"gi R.R-532 sonli qarori
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 12-dekabrda "Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining 2008 yilgi parametrlari to'g'risida"gi R.R-744 sonli qarori

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3-sentyabrdagi 414-sonli "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. T.: "Adolat" 2002
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 31-dekabrdagi "Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining 2002 yilgi parametrlari to'g'risida"gi R.R-493 sonli qarori
19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 31-dekabrdagi "1994 yilgi O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining kontseptsiyasi to'g'risida"gi qarori
20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 31-dekabrdagi "Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining 2003 yilgi parametrlari to'g'risida"gi R.R-455 sonli qarori
21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining 2004 yilgi parametrlari to'g'risida"gi R.R-567 sonli qarori
22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 28-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining 2005 yilgi parametrlari to'g'risida"gi R.R-610 sonli qarori

Me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalar

23. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining "Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomi 1998
24. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining "Tijorat banklari kapitalining etarililigiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomi 1998
25. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining "Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari chiqarilishining muomalada bo'lishi va xizmat ko'rsatishi to'g'risida"gi Nizomi 1998

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va nutqlari

26. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustivor yo'nalishlari. T: "O'zbekiston" 1993
27. Karimov I.A. O'zbekiston siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T: "O'zbekiston" 1995
28. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T: "O'zbekiston" 1998
29. Karimov I.A. Ozod vaobod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T: "O'zbekiston" 2000
30. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustivorligini ta'minlash - barcha islohot va o'zgarishlarning bosh maqsadidir. T: "Xalq so'zi" 2008
31. Karimov I.A. Yangilanish va Barqaror taraqqiyot yo'lida yanada izchil harakat qilish xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish - asosiy vazifamizdir. "Xalq so'zi" 2008
32. "Erilishgan yutuqlarni mustahkamlash, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. Xalq so'zi" 2006

33. Karimov I.A “Mamlakatimiz taraqqiyotining qonuniy asoslarini mustahkamlash faoliyatining mezonini bo’lishi dardkor”. Xalq so’zi” 2006
34. Karimov I.A “Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash , mamlakatni modernizatsiya qilish” T: “O’zbekiston” 2005
35. Karimov I.A “Bank tizimi, pul muomalasi , kredit, investitsiya va moliyaviy Barqarorlik to’g’risida” T: “O’zbekiston” 2005
36. Karimov I.A “Biz tanlagan yo’l - demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo’li” T: “O’zbekiston” 2003
37. Karimov I.A “ Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi; O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T: “O’zbekiston” 2009

Kitob va turkum nashrlar

38. Averting the Old Age Crisis Oxford Univ Press 2000 A. Policy Research Report 1999 (The World Bank)
39. Abdullaev E.A. Sirojiddinova Z.X. Usinbaev N.I. “Gosudarstvenno`e finanso` Respubliki Uzbekistan T: “Mexnat” 2001
40. Alimov I.I. «Moliya» T: “TDIU” 2001
41. Alimov I.I “Tijorat banklarining qimmatli qog’ozlar bilan operatsiyalari” T: “TDIU” 2007
42. Vahobov A.V. ,Sirojiddinova Z.X. O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti T: 2001
43. Vahobov A.V., Qosimova S.A., Jamolov X.N. Byudjet - soliq siyosati yaxlitligi. O’quv qo’llanma. T: “Iqtisod Moliya” 2005.